



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

FOLKLOR VA YOZMA ADABIY ALOQALAR

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi:

**O'zbek tili filologiyasi:
o'zbek adabiyotshunosligi**



**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Toshkent – 2022

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

N. Rahmonov filologiya fanlari
doktori, professor

Taqrizchilar:

B. Karimov filologiya fanlari
doktori, professor, ToshDO‘TAU

N. Jo‘raqo‘ziyev filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori(PhD),
ToshDO‘TAU

S. Normamatov, filologiya fanlari
doktori. ToshDO‘TAU

E. Ushenmez, filologiya fanlari
doktori, Turkiya Istanbul universiteti
professori

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

(2020-yil 29-dekabrda 7-sonli qarori)

etilgan.

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	14
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	27
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	46
V.	KEYSLAR BANKI	76
VI.	GLOSSARIY	78
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	94
VIII.	TAQRIZ	98

I. ISHCHI DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil

etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

"Folklor va yozma adabiyotning o'zaro aloqalari" moduli oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldiga davr tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar asosida tuzilgan. Mamlakat hayotida yuz berayotgan jiddiy o'zgarish va yangilanishlar, shubhasiz, oliy filologik ta'lim tizimida adabiyot o'qitishni yo'lga qo'yish borasida ham tubdan yangilanish bo'lishini taqozo qiladi.

Butun dunyoda insonda ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu hol, o'z navbatida, filologik ta'lim samaradorligini oshirishni talab etadi. Chunki folklor ham, yozma adabiyot ham odamda ezgu ma'naviy sifatlar tarkib topdirishning eng samarali yo'lidir.

Davr o'zgarishi bilan badiiy adabiyotga folklogamunosabat va unga yondashuv yo'sinlari ham o'zgarib bormoqda. Oldinlari badiiy bitikka odamlarga nasihat qilish, ortidan ergashtirish vositasi tarzida qaralib kelingan bo'lsa, endilikda adabiyot va folklogga o'quvchida akseologik munosabat uyg'otish, baho berishga ichki ehtiyoj paydo qilish omili sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv yo'sini oliy o'quv yurtlarida adabiyot va follorga ham yangicha munosabatda bo'lishni talab qilmoqda.

Bugungi odam ma'naviyati shakllanishi uchun badiiy asarni, doston va ertaklarni o'qish, turli janrdagi asarlar tarkibiga singishib ketgan folklor syujetlari va motivlarini anglash, tushunish va tahlil qilish hamda bitikdan kelib chiqadigan

ijtimoiy-estetik ma'noni anglash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ushbu modul oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariga adabiyotda folklor motivlari va syujetlarini anglatish, folklorning yozma adabiyot taraqqiyotidagi rolini tahlil va talqin qilishni o'rganishda yangicha yondashuv yo'llari borasida tushuncha beradi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqalari” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida adabiyotga doir turli fanlar, ayniqsa, “Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqalari” fanini o‘qitish borasida yangicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- oliy maktab professor-o'qituvchilarini adabiyotga tegishli fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-nazariy yangiliklar bilan tanishtirish;
- oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarida o'zbek adabiyoti va folklori yo'nalishidagi istalgan fandan ma'ruza o'qish, amaliy mashg'ulotlar o'tish malakasini qaror topdirish;
- tinglovchilarda “Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqalari” kursi bo‘yicha samarali saboqlar uyushtirish ko‘nikmasini shakllantirish;
- professor-o'qituvchilarda “Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqalari” kursini o'tishda turli innovatsion usullardan foydalana bilish ko'nikmasini tarkib topdirish;
- tinglovchilarda adabiyotga doir fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llay olish malakasini shakllantirish;
- tinglovchilarni turli janr va adabiy yo'nalishlardagi badiiy asarlarni tahlil qilishga o'rgatish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentligi darajasiga qo‘yiladigan talablar

“Folklor va yozma adabiyotning o‘zaro aloqalari” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi *bilimlarga* ega bo‘lishi kerak:

- adabiyot va folklor o‘zaro aloqalarining nazariy-metodologik muammolarini;
- mumtoz va zamonaviy adabiyotda folklorizm hodisasiga ilmiy-nazariy yondashuvni;
- folklorizmning asoslari nimalardan iborat ekanligini;
- adabiyot va folklorning o‘zaro aloqalariga oid nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- adabiyot va folklor o‘zaro aloqalarining nazariy-metodologik muammolari haqida;
- folklorizm birinchi navbatda kishining tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirish vositasi ekani haqida.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi *ko‘nikmalar* shakllantirishga xizmat qiladi:

- badiiy asardagi folklorizmlarni og‘zaki nutq vositalaridan farqlay bilish;
- adabiyot saboqlarini o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlar qaror topdirishga yo‘naltirishda folklorizmning alohida roli borligi haqida;
- turli janrdagi badiiy asarda folklorizmni topa olishi;
- folklorizmning badiiy asar rivojidadagi roligi alohida e’tibor berish;
- badiiy asar tarkibidagi folklorizmning asar syujetida qay tarzda namoyon bo‘lishi haqida tasavvur hosil qilish;
- badiiy asardagi folklorizmlarni og‘zaki nutq vositalaridan farqlay bilish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi *malakalarni* egallashlari mo‘ljallanadi:

- folklor badiiy tasvir vositalarining zamonaviy adabiyotga ta’sirini aniqlash;
- adabiyot tarixiga oid asarlarda folklorizmning o‘ziga xosligini ko‘rsatish;
- zamonaviy adabiyotdagi folklorizmlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatish;
- folklor badiiy tasvir vositalarining zamonaviy adabiyotga ta’sirini aniqlash;

- mumtoz adabiyotda folklor syujetlarining aks etish qonuniyatlarini o‘rganish;
Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar mumtoz adabiyotda folklor syujetlarining aks etish qonuniyatlarini tahlil qila olish kompetentligiga ega bo‘ladilar. Unda tekshirilayotgan asarning qaysi tur va janrda ekanidan qat’i nazar bitikka xos asosiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish yo‘llarini egallaydilar.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Adabiyot va folklorning o‘zaro aloqalari” ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyotshunosligidagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning adabiyotshunoslik va folklorshunoslikka doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Adabiyot va folklorning o‘zaro aloqalari” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning Oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Adabiyot va folklorning o‘zaro aloqalari” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy asarlar to‘g‘risida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o‘qitish samaradorligi sezilarli oshadi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Adabiyot va folklorning o'zaro aloqalari nazariy-metodologik muammo sifatida. Qadimgi turkiy adabiyot va folklor.	2	2	
2.	Xalq kitoblari, ularning shakllanishi, yuzaga kelish omillari.	2	2	
3.	Folklor badiiy-tasvir vositalari. Mumtoz va zamonaviy adabiyotda folklorizm hodisasiga ilmiy-nazariy yondashuv.	2		2
4.	Adabiyot va folklorning o'zaro aloqalariga oid nazariy qarashlar.	2		2
5.	Folklorizmning badiiy asar rivojidadagi roli. Badiiy asardagi folklorizmlarni og'zaki nutq vositalaridan farqi.	2		2
Jami:		10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Adabiyot va folklorning o'zaro aloqalari nazariy-metodologik muammo sifatida. Qadimgi turkiy adabiyot va folklor. Folklor va yozma adabiyot aloqalari qonuniyat sifatida. Folklor yozma adabiyotning asosi sifatida. Folklor va yozma adabiyot munosabatlarining nazari masalalari. Adrianova-Perets.

D.S.Lixachev, D.N.Medrish, U.B.Dalgat va b.larning qarashlari. Dunyo xalqlarining ilk yozma adabiyoti folklor zaminida shakllangani. Mifologiya va yozma adabiyot. Mifologiya ilk yozma adabiyotda ramziy obrazlar, metafora va h.k. ko‘rinishda. Mif og‘zaki ijod va yozma adabiyotning shakllanish manbai sifatida. Qadimgi turkiy adabiyotda olamning paydo bo‘lishi haqidagi mif. Qadimgi va ilk klassik davr turkiy adabiyoti bilan turkiy eposlar o‘rtasidagi sistemaro aloqalar. Ilk davr yozma adabiyotidagi janrlarning folklorga ham aloqadorligi masalasi. Yozma adabiyot va folklor o‘rtasidagi g‘oyaviy-estetik adaptatsiya. Ritmik-sintaktik parallelizmlar.

2-mavzu. Xalq kitoblari, ularning shakllanishi, yuzaga kelish omillari.

Xalq kitoblari, ularning shakllanishi, yuzaga kelish omillari. Folklor badiiy-tasvir vositalari. Janrlarning paydo bo‘lishi. Janrlar tarixiy kategoriya sifatida. A.N.Veselovskiyning folklor janrlari paydo bo‘lishida udumlarning vazifasi va roli haqidagi qarashlari. Qo‘shiq va madh janrlarining qadimgi turkiy adabiyotda qat‘iylashuvi. Kantilen va uning vazifasi. Yakka qahramonlik motivi. Sinkretizm davri poetikasida folklor va adabiyotning o‘zaro munosabatlari. A.N.Veselovskiyning qadimgi she‘riyat sinkretizmi va adabiy turlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlari. Sinkretizm davrida so‘z. Qadimgi she‘riyat sinkretizmi. Poetik turlarning differentsiyalashuvi. Sinkretizm davrida so‘z va she‘riyat. Sinkretizm bosqichida adabiy turlar va janrlar. Sinkretizm davri poetikasida mifopoetik ijod. Sinkretizm davri poetikasi uchun asosiy manba folklor va mifopoetik ijod ekani.

Kam sonli xalqlarda folklor adabiyotning yuzaga kelishi uchun asosiy omil. Bu xalqlarda epik an‘ananing yozma adabiyotga ta‘siri. Kavkaz xalqlarida 20-yillar adabiyotining shakllanishida folklorning roli. “Tohir va Zuhra” syujeti. Sayyodiyning “Tohir va Zuhra” dostoni shu nomdagi ertakning mahsuli sifatida. Jahon va o‘zbek adabiyotida ertak sxemalari (Ves. 454). Doimiy epitetlarning yozma adabiyotda, epos va ertaklardagi vazifasi. O.M.Freydenberg ilmiy faoliyatida mif va adabiyot munosabatlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Folklor badiiy-tasvir vositalari. Mumtoz va zamonaviy adabiyotda folklorizm hodisasiga ilmiy-nazariy yondashuv. Mumtoz va zamonaviy adabiyotda folklorizm hodisasiga ilmiy-nazariy yondashuv. Folklorizm asoslari. Adabiyot va folklorning o'zaro aloqalariga oid nazariy qarashlar. Adabiyot va folklor o'zaro aloqalarining nazariy-metodologik muammolari. Agiografik asarlar va ularda xalq og'zaki ijodiga oid motivlarning uchrashi. Bu turkumdagi asarlarda rivoyat, naql, latifa kabi bir qator janrlarning har ikki sistema uchun umumiyliigi. Qissalarda folklor motivlari va syujetlari. Folklor janrlarining agiografik asarlarda yangicha mazmun kasb etishi.

2-mavzu. Adabiyot va folklorning o'zaro aloqalariga oid nazariy qarashlar. Badiiy asardagi folklori og'zaki nutq vositalaridan farqi. Mumtoz adabiyotda folklor syujetlarining aks etish qonuniyatlari. "Ulug' saltanat"da folklor janrlaridan foydalanish. Chingiz Aytmatovning "Oq kema", Asrlarga tatigulik kun" va boshqa asarlarida mifologiya, folklor motivlari va syujetlaridan foydalanish. She'riyatda folklorizm. To'ra Sulaymon ijodida folklorizm. Yangi o'zbek she'riyatida folkloridan foydalanish an'alarining tadrijiy takomili.

3-mavzu. Folklorizmning badiiy asar rivojidagi roli. Badiiy asardagi folklorizmlarni og'zaki nutq vositalaridan farqi. Folklorizmning badiiy asar rivojidagi roli. Badiiy asardagi folklorizmlarni og'zaki nutq vositalaridan farqi. Mumtoz adabiyotda folklor syujetlarining aks etish qonuniyatlari. Folkloriga xos metafora, ramzlar va boshqa badiiy-tasvir vositalarining mumtoz adabiyotdagi va yangi o'zbek she'riyatida davom etishi.

"Oltun yorug'"da afsonalarning roli, buddaviylik mifologiyasi. Navoiyning nasriy asarlarida folklorizmlar. "Boburnoma"da xalq maqollari, Tarixiy asarlarda (Rashididdinning "Jome'ut*tavorix"ida, "To'rt ulus tarixi"da, "Shajarayi turk"da, Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"sida) folklor janrlari va ularning vazifasi. H.Olimjonning adabiy ertaklari va ulardagi folklor syujetlari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:
masofadan o‘qitish;

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

**II. MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-studi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagi audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish;

	<ul style="list-style-type: none"> – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash; – muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Keys. Kichikroq badiiy (she‘riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

• F	- fikringizni bayon eting
• S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
• M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
• U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment” lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha soʻz boʻlib, tarkib maʼnosini anglatadi.
- B. Inglizcha soʻz boʻlib, tahlil maʼnosini anglatadi.
- C. Yunoncha soʻz boʻlib, talqin degan maʼnoni anglatadi.
- D. Lotincha soʻz boʻlib, badiiy asar matnini anglatadi



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lugʻaviy maʼnosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lugʻaviy maʼno beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya boʻlmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu boʻyicha tayanch tushunchalarni oʻzlashtirish darajasini aniqlash, oʻz bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qoʻllaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashgʻulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impresiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi.	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish.	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish.	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash.	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish.	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha.	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Ifoda shakllari bo‘yicha (she‘riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha

o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!


Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan

muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



III.NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

ADABIYOT VA FOLKLORNING O‘ZARO ALOQALARI NAZARIY-METODOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. QADIMGI TURKIY ADABIYOT VA FOLKLOR

REJA:

1. *Garsia Lorca bir shoirga maslahati*
2. *Paydo qiluvchi folklorizmlar*

Tayanch tushunchalar: “Vizantiya, struktur-informativ, folklorizm, slavyan, maishiy folklorizm, paydo qiluvchi folklorizmlar, “Irq bitigi”, tinsi.

Garsia Lorca bir shoirga maslahati. Folklor va yozma adabiyotning aloqalari bilan dunyo xalqlari adabiyotshunosligi shug‘ullanib keladi. Ayniqsa, yozma adabiyotning ilk davriga oid tadqiqotlarda albatta, folklor obrazlari yoki syujetlari va motivlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiy harakat qanchalik boy va ko‘p qirrali bo‘lsa, adabiyotda folklorning in’ikosi shuyechalik chuqur va asosli bo‘ladi. Garsia Lorca bir shoirga shunday maslahat bergan edi: “Xalqdan faqat mohiyatning mag‘zini olish kerak., ammo hech qachon xalq ovozining anglab bo‘lmas jarangdorligini aynan aks ettirishga urinish kerak emas, chunki biz faqat nozik tarbiyamiz kuchi bilan mohiyat mag‘zini xiralashtirib qo‘yishimiz mumkin. Har qanday stilizatsiya, nosamimiylilikni va behuda o‘yinni keltirib chiqarayotganday bo‘ladi.” Lorca bu gaplari bilan folklordan foydalanish meyorini bo‘lishi kerakligini uqtirmoqda. M.Gorkiyning ham shu mazmiundagi gapi bor. Hammaga ma’lum bo‘lgani uchun u haqda to‘xtalmaymiz.

Folklor va yozma adabiyot munosabatlarida stil, ya’ni usul asosiy omil ekani haqida o‘tgan asrning 20-30-yillarida M.Xrapchenko jiddiy qarashlarini aytib ,

adabiyot va folklor munosabatlariga tizimli yondashuv zarur ekanini ko'rsatgan edi. Usul organik jihatdan yaxlitlik kasb etib, har ikkalasining usuli bir tizimni hosil qilishi kerak. Har bir xalqning adabiyotida folklor vayozma adabiyot bir tizimni hosil qiladigan va tizim alohida ajralib turadigan davrlar bor.

Jumladan Rus adabiyotining X-XIII asrdagi holatiga e'tibor beraylik. Bu davrda rus adabiyoti o'z janrlarini Vizantiya va Bolgariyadan o'zlashtirgan deb bemalol ayta olamiz. Ammo hamma janrlarni ham o'zlashtirmagan. Bu xalqlar adabiyotidagi bir qism janrlar Rus adabiyotiga o'tmadi. Zotan ijtimoiy hayot nokerak hisobangan janrlarni qabul qilishni zarur deb bilmadi. Masalan kandak janri (sodda qilib aytganda ibodat poemalari) Vizantiya adabiyotida bor. Bu janr rus adabiyotiga o'tmadi. Ilk Vizantiyaning yorqin iste'dodlaridan biri shoir Roman Sladkopevetsdir (V-asr oxirida tug'ilib, 555-yildan keyin vafot etgan). U Bayrutda tug'ilgan. Roman o'z ijodida suryoniy va yunon an'alarini omuxtalashtirdi. Uning buyuk xizmatlaridan biri jamoatlar yig'inida kuylanadigan madhiyalarda yangicha poetik shakllarni - ibodat poemalarini, ya'ni kandak janriga mansub poemalarni yaratgan. Bora - bora bu janr pravoslav jamoatlarida Xudoni madh qilishda bosh o'rin egalladi. Uning ijodida ijtimoiy hayot, xalqona tafakkur mahsuli bo'lgan she'rlar ham o'rin olgan. Badiiy asarlarning shunday turlari borki, ular folklor asarlari bo'lishi bilan birga, yozma adabiyotning ilk namunalari ham hisoblanadi. Bu asarlar organik folklorizmlar deb nomlanib, bu guruhga katta hajmdagi asarlarni kiritish mumkin. Namuna sifatida «Maxabxorot», «Odissey», «Rigveda», «Kalevala» (karelo-fin eposi) kabi yodgorliklarni kiritish mumkin.. Bular yangi sifatga ega bo'lgan folklor asarlari deb ataladi. **Struktur-informativ folklorizmlarga** slavyan yilnomalari mansub. **Maishiy folklorizm** namunalariga — Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari, Yakub Kolasning «Yangi yer» dostoni kabi qator asarlarni kiritish mumkin.

Paydo qiluvchi folklorizmlar — bu guruhga Gogolning (Rojdestvo arafasidagi tun) «Ночь перед Рождеством» qissasi, L. N. Tolstoyning hikoyalari va masallari, Bulgakovning «Master va Margarita», romanini kiritish mumkin. O'zbek adabiyotida Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari bu turkumdagi

folklorizmlarning eng jonli namunasi. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi qissalarning qahramonlari tasviri, turli janrlar hikoyat, riaoyat, latifa kabi bir qator janrlar folklordan olingan.

Qadimgi turkiy adabiyotning folklor bilan aloqalari to‘g‘risida so‘z ketganda biz ikki sistemaning – folklor va yozma adabiyotning o‘zaro yaxlitlashuvini nazarda tutishimiz kerak. Qadimgi turkiy adabiyotning yuzaga kelishida yoki shakllanishida folklor motivlari, syujetlari, badiiy tasvir vositalarining rolini alohida ta’kidlashimiz lozim. Qadimgi turkiy yodgorliklar yozma adabiyot namunasi sifatida bevosita va bilvosita folklor zaminida o‘tib chiqqan va folklor va yozma yodgorliklar bir tizim holiga kelgan. Turkiy eposlar qadimgi turkiy yodgorliklarga manba bo‘lgan bo‘lsa-da, qadimgi turkiy yodgorliklarning tuzilishini belgiyovchi asosiy omil deb qaramaslik kerak. Eposlar yodnomalar uchun murakkab adabiy sintez komponentlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Adabiy sintez yodgorliklarning butun tarkibida bor. Jumladan epitetlar va ularning turlarini olib qaraylik. Yodnomalarda asosan doimiy epitetlar (bilga, alp, yag‘iz, iduq va b.) qo‘llanadi. Mazkur epitetlarning vazifasi, bir tomondan, ko‘tarnkilikni hosil qilish, ikkinchi tomondan, esa ideal qahramonlar obraziga asos solishdir.

Bilga qag‘an armis, alp qag‘an armis, ayg‘uchisi bilga armis arinch. Alp armis arinch, buyruqi yama bilga armis arinch, alp armis arinch, baglari yama, boduni yama tuz armis (Ktu, 3)- Dono xoqon ekan, bahodir xoqon ekan, buyruqchilari ham dono ekan, shekilli, bahodir ekan shekilli, beklari ham, xalqi ham to‘g‘ri ekan,

Yuqoridagi epitetlarning asosiy vazifasi ideallashtgan xoqon obraziga asos solishdir. Ideallashtgan obraz eposlarga xos, ammo yodnomalardagi xoqonlar tarixiy shaxslardir.

Yozma adabiyot va folklorning o‘zaro munosabatlarining turli-tumanligini Irq bitigi misolida ko‘rish mumkin. «Irq bitigi» sinkretik tafakkur va dunyoqarash mahsuli, unda inonch e’tiqodlar ham, badiiy tafakkur ham, g‘ayritabiiy timsollar ham bor. Asardagi adabiy parchalar, shubhasiz, miflarni o‘zida saqlagan. Qadimgi turkiy yodgorliklar orasida miflarni o‘zida saqlagan yozma yodgorlik «Irq

bitigi»dir. «Irq bitigi» – mifologik timsollar asosiga qurilgan asar. Asardagi mifologik timsollar, birinchi navbatda, qadimgi turkiylar madaniy muhitida yaratilgan va an'anaviy ravishda yashab kelgan kultrlarga tayanadi. Kultrlar esa, o'z navbatida, ramziy timsollarni keltirib chiqargan. Ramziy timsollar esa g'ayritabiiy timsollar sifatida mifga tayanadi. Mif – kult – ramziy timsol – g'ayritabiiy timsollar munosabatlari «Irq bitigi»ning, umuman, qadimgi turkiy adabiyotning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi omillarsiz yoki jarayonsiz «Irq bitigi»ni talqin va tahlil qilish mumkin emas. Bu yozma yodgorlikdagi aksariyat hikoyatlar epik syujetga asoslangan. Yodgorlikdagi kichik hikoyatlarning deyarli hammasida udumlar ham, inonch-e'tiqodlar ham bor bo'lib, badiiy tafakkur mahsuli sifatida g'ayritabiiy timsollarni hosil qilgan. «Irq bitigi»dagi hikoyatlarda timsollar, xususan, g'ayritabiiy timsollar bor, degan fikrni o'rta tashlashimizga sabab ham mifologik timsollarga yoki mifologik syujetlarga tayanganidir. Qadimgi turkiy adabiyotda ikkita «Irq bitigi» bor bo'lib, bittasi urxun yozuvida bitilgan va VIII-asrga tegishli; ikkinchi «Irq bitigi» moniy yozuvida va qadimgi turkiy tilda bitilgan bo'lib, IX-asr boshlariga aloqador. Mazmun va mohiyati, syujet qurilishi jihatidan har ikkala «Irq bitigi» bir-biridan tamomila farq qiladi. Demak, timsollar tizimi jihatidan ham har ikkala «Irq bitigi» bir-biridan farq qilishi tabiiy.

Ammo har ikkala «Irq bitigi»ning umumiy xususiyatlari ham bor. Irq bitiklarining yaratilishidan maqsad – insonlarning ruhan boyishi, ular o'rtasida sog'lom muhit yaratish edi. Shu ma'noda, ta'birmomalarni faqat folbin va ta'birchilarning o'ylab chiqargan g'oyalari emas, balki hayotiy mazmun kasb etgan qarashlarining mahsuli, deb ifodalash maqsadga muvofiqdir. Ta'birchilar g'oyalarni xalqning o'zidan olganlar.

“Irq bitigi” haqida turkologlar ayrim fikrlarni aytib o'tganlar. Qadimgi turkiy muhitda yakkayu yagona qog'ozga yozilgan bu asarni ingliz arxeologi Arnold Steyn Sharqiy Turkistonning Dunxuan shahridan topgandan so'ng (1907 yili), birinchi bo'lib Vilgelm Tomson tadqiq etdi va 1912-yili “Journal of the Royal Asiatic Society” jurnalida Leypsigda chop ettirdi. Shuningdek, S.YE.Malov bu

asarni qadimgi turkiy yozuvdan transkripsiya qilib, rus tiliga tarjimasini berdi.¹ Nemis olimi A.fon Gaben qadimgi turkiy adabiyot haqida soʻz yuritganda, «Irq bitigi»ning til xususiyatlariga, uslubiga qisqacha toʻxtaladi, ayrim lavhalarni qadimgi turkiy qavmlar udumiga bogʻlaydi. I.V.Stebleva bu asarning sheʼriy tuzilishi haqida ilk bor oʻz fikrlarini oʻrtaga tashladi va diniy oqimlarning, xususan, moniylik va shomonlikning mazkur asarda aks etishi haqidagi gʻoyalarini ilgari surdi². Oʻzbek olimlaridan N.Rahmonov «Irq bitigi»ning qadimgi turkiy adabiyotdagi oʻrni, uning turkiy xalqlar adabiy, madaniy hayotidagi mavqei, undagi ayrim obrazlarning udumlar va inonch-eʼtiqodlar bilan bogʻliq tomonlari haqida soʻz yuritgan.³ Professor B.Toʻxliyev «Qadimiy hikmatlar» majmuasida mazkur yodgorlikning oʻzbek tiliga tabdilini bergan⁴. Filologiya fanlari doktori Joppor Eshonqulov «Irq bitigi»ning tush va uning taʼbiri bilan bogʻliq tomonlariga toʻxtalgan. Shuningdek, uning badiiy tushlarda anʼanaviy timsollar qoʻllanishi haqidagi fikrlari diqqatga sazovor.⁵

«Irq bitigi», qadimgi turkiy adabiyotda nafaqat qogʻozga yozilgani bilan, balki mifologik syujetlarni oʻzida saqlagani, gʻayritabiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda qadimgi turkiy adabiyotdagi Irq bitiklari timsollar tizimi, taʼbir talqini usullari orasida oʻzaro farqli jihatlarga ega. Ana shu farqli jihatlari «Irq bitigi»ning qadimgi turkiy adabiyotda alohida yoʻnalish sifatida shakllanganini koʻrsatadi.

«Irq bitigi»dagi timsollar, albatta, islomgacha boʻlgan diniy oqimlarning, xususan, shomonlikning mahsuli oʻlaroq yuzaga kelganini alohida taʼkidlash darkor. Nemis olimi A.fon Gaben «Irq bitigi» haqida qisqa toʻxtalgan. U mazkur yodgorlik yuzasidan fikr bildirib, adabiy va madaniy yodgorlik sifatida baho bergan va yodgorlikning umumiy mazmuni va mundarijasi haqida fikrlarini bayon

¹ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.–Л., 1951. – С. 80-92.

² Стеблева И.В. Древнетюркская книга гаданий как произведение поэзии. – История, культура, языки народов Востока. – М., 1970. – С. 165-166; Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. – М.: Восточная литература, 2007. – С. 172-178.

³ Раҳмонов Н. Инсон руҳининг садоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986.

⁴ Қадимий хикматлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 46-58.

⁵ Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2010. – Б. 14, 32.

qilgan. Jumladan, u bu asarning 15-bo'limini izohlab, «har bir oddiy sahnadan so'ng bashorat kelish»ini aytadi⁶. A. Gaben moniy yozuvidagi «Irq bitigi» haqida to'xtalar ekan, bu yozma yodgorlikdagi bashorat she'riy shaklda berilganini ta'kidlaydi:

birok šöü šölämäk atly irq kälsär, savin inča ayur: šöü söläsäryer tälinür kisi sözläsär sav alqinuryol azsaräv tapmazkiši yangilsariš bütmez öz kántüging bk tutyil ötüg savqa yarima ögüz ärtgäli oyratıng, išing bütmez bäg bolyalı qilintıng», yrlıyıng yorımaz ilmiş išing yayılıy sözlämiş savıng tüdüštüg yäk içkäk ägirür yayı yavlaq altayur kün tngri külünti čäriging üzäay tngri badtı qutung üzä öz kántüngkä inanyıl kántü köngülüngin bäk tutyilat'özüng küsäsär snkälän käyik müyüzi tæg atıngküüng kötlürgäy. «Lashkar tortmoq» degani tushda kelsa ta'biri shunday bo'lar: Jang bo'lsa, yer yoriladi. Odam so'zlasa, gapi tugaydi. Yo'ldan adashsa, yo'lini topmas, odam adashsa, ishi bitmas. O'z-o'zingga hokim bo'l. O'tinch, iltimosga borma. Daryo kechishni bilmasang ishing bitmas, Bek bo'lmoq chun harakat qilsang, yorlig'ing yurmas. Qilgan ishing dushmanlik bo'lsa, aytgan gaping janjalli bo'lsa, shayton, jinlar atrofingni o'raydi. Yovuz, yomon odamlar seni aldaydi, Kun Tangri askaring uzra botadi, Oy Tangri saodating uzra botadi. O'z-o'zingga ishongil, Ko'nglingni bek tutgil, Vujudingni muhofaza etsang, Bir kun kiyik muguzi kabi, Noming, soning yuksalar.

Mazkur parchaning g'oyaviy mazmuni haqida Gaben fikr yuritib, butun «Irq bitigi» haqida xulosa chiqaradi va «Bu Fol kitobining g'oyaviy olami dunyo dinlaridagiday emas, ayni paytda ko'chmanchi chorvadorlarning tafakkur olamiga ham tegishli emas. Bu o'rinda urug' va oila emas, balki fazoviy kuchlar, iblislar va shu bilan birga, hokimiyat va savdogarlar manfaati rol o'ynaydi», degan xulosaga keladi.

Mazkur «Irq bitigi»da uch o'rinda (1-,3,4-fol ta'birida) iltimos ifodalanadi: yirkä, tangrikä sevinč tut!.. Yerga, osmonga sevinch bag'ishlagin. Bunda osmondan oldin yerga qurbonlik qilishga ishora bordek.

⁶ Gaben A. фон. Древнетюркская литература / Зарубежная тюркология. – М.: Наука, 1986. – Б. 156.

«Irq bitigi», ya'ni Fol kitoblari tush ko'rish va uni ta'birlashga asoslangani uchun, dunyo madaniyatida mavjud hodisa. Qadimgi turkiy adabiyotdagi «Irq bitigi» xitoy, yunon, hind va boshqa xalqlarda «Taqdir kitobi» deb ham yuritiladi. Jumladan, «Oltun yorug'»da ham «Taqdir kitobi» haqida so'z ketadi. «Taqdir kitobi»da qancha-qancha jonivorlarni qizining to'yida qurbonlik qilgan Inchyu shahrining begi Ku tayning umri belgilab berilgani haqida ruhlar uni xabardor qiladilar⁷. «Taqdir kitobi» ham aslida xuddi Irq bitiklari kabi insoniyat donishmandligining o'ziga xos manbai. Ammo bu manbalarga tayangan holda har qanday fol yoki tush ta'biridan mutlaq haqiqatni qidirish ham maqsadga muvofiq emas. Mana shuning uchun ham g'ayritabiiylik va g'ayritabiiy timsollar ta'bir asosida yuzaga kelgan syujetlarning tayanch nuqtalaridan hisoblanadi.

A.N.Veselovskiyning quyidagi gapi Irq bitiklaridagi ramziy timsollar va mif munosabatlariga aynan mos keladi: «So'z – bu simvol, gap va jumlar – mifdir. Shteyntalning tasavvuri bo'yicha so'z gapdan kelib chiqqan, simvol mifdan kelib chiqqan, xuddi shu singari she'riyat boshqa san'at turlaridan oldin paydo bo'lishi kerak edi»⁸. Biz bu yerda asosiy e'tiborni VIII-asrda urxun yozuvida bitilgan «Irq bitigi»ga qaratamiz. Bu kitob bo'yicha fol ochish yoki tush ta'biri texnik tomondan qanday amalga oshirilgani noma'lum. Bu kitob «ta'birnoma»dir, deb fikr bildirgan olimlarning fikrlari o'zini oqlaydi. Ammo shu ta'kidning o'zi ta'birlar va folbinlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayoni qanchalik ma'lumligini aniqlashtirib bera olmaydi.

«Irq bitigi»dagi ramziy timsollar o'z davridagi tarixiy-qahramonlik dostonlaridagi Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq kabi obrazlardan tamomila farq qiladi. Birinchi navbatda, ramziy timsol bo'lgani bilan, ikkinchidan, bu obrazlarning ong osti-intuitiv mushohadaga asoslangani bilan o'ziga xoslikka ega. Mushohadaga obyekt bo'lgan sirli mazmuni yetkazish usullari, bizningcha, qadimgi turk xoqonligi, so'ngra uyg'ur xoqonligi davridagi diniy-falsafiy, ma'naviy jarayonlardan kengroqdir. «Irq bitigi»ning syujet qurilishi va timsollar

⁷ Олтун ёруғ. I китоб. Сўз боши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага таъдил муаллифи: Насимхон Раҳмон. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 26.

⁸ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М: Изд. Художественная литература, 1940. – С. 395.

tizimi aynan mushohada jarayoni bilan bog‘liq. Mushohada – moniylik va buddaviylik oqimining asosiy bosqichlaridan biri, shu bois mazkur oqimlarning aqidalari «Irq bitigi» timsollari ramziylik asosidagi g‘ayritabiiylikdan iborat ekani, birinchidan, mushohadani, ikkinchidan, g‘ayritabiiylikni yuzaga keltirgan. Moniylik oqimining Eron va O‘rta Osiyo hududida zardushtiylik, buddaviylik, masihiylik kabi oqimlardan tashkil topgani va bu oqimlarning eng muhim, amaliy jihatdan hayotga yaqin bo‘lgan qirralarini o‘zida mujassamlantirgani haqida asosiy gaplar aytilgan⁹. Qolaversa, «Irq bitigi» moniy jamoasi xizmatchilari – «dintar»lar (so‘g‘dcha termin bo‘lib, «tanlangan», «moniy jamoasi a‘zosi» degan ma‘nolarni bildiradi), shuningdek, jamoaning oddiy a‘zolari uchun yaratilgan. Bizni qiziqtirgan masala – bu oqimlardagi, ayniqsa, buddaviylikdagi va moniylikdagi mushohada qilishning «Irq bitigi»da qanday omillar va vositalar asosida shakllanganidir. Ayni paytda Markaziy Osiyo diniy oqimlarining sinkretik xarakteri biridagi aqidalarning mohiyatini boshqasiga olib o‘tavergan. Masalan, moniylik jamoasi a‘zolarining nizomnomasi bo‘lgan «Xuastuanift» bilan «Oltun yorug‘»dagi ayrim terminlarning har ikkala manbada umumiyligi (dintar, no‘m (ya‘ni, qonun) kabi terminlar), yomon qilmishlar uchun tavbaning shaklan va mazmunan har ikki manbada o‘zgarishsiz uchragani fikrimizning dalilidir¹⁰. Bunday masalani qo‘yishimizga sabab – mushohada buddaviylik aqidalarini o‘zida mujassamlantirgan «Oltun yorug‘»da juda aniq ko‘rinadi, ammo mushohada ramziy timsollarga emas, balki buddaviylik aqidalariga asoslangan. «Irq bitigi»dagi mushohadaning ramziy timsollar asosidagi g‘ayritabiiylikka asoslangani uning o‘ziga xos farqli jihatidir.

«Irq bitigi»dagi barcha hikoyatlarda mavjud ramziy timsollarga e‘tibor bersak, albatta, voqealar rivojida ham g‘ayritabiiylikni yuzaga keltirganini ko‘ramiz. «Irq bitigi»ning birinchi hikoyatiga e‘tibor beraylik:

⁹ Раҳмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 5-6.

¹⁰ Қаранг: Раҳманов Н. Следы манихейства в «Алтун яруг» / Материалы международной конференции «Актуальные проблемы современного монголоведения и алтаистики». – Элиста, 2014, – С. 470-472.

Tinsiman, yarin kecha altun orgin uza olurupan mangilayurman. Ancha bilinglar adgu ol – (Men) Tinsiman, yarim kecha oltin taxt ustida o‘tirib, xursand bo‘laman. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.

Tinsi – bu Xitoy podshohining ismi, qadimgi Xitoy mifologiyasidan davom etib, qadimgi turkiy mifologiyaga o‘tib kelgan. Chjou davrida (miloddan oldingi XI-X asr) qadimgi Xitoyda qandaydir oliy ibtido – Tyan (osmon) kulti shakllangan. Bu kult yer yuzida yuz berayotgan hamma narsaga rahnamolik qiladi. Ammo ...Tyan juda abstrakt timsol bo‘lib, konkret mifik personajlarning namunalari bilan aralashib ketgan¹¹. Ana shu abstraktlikni aynan qadimgi turkiy yodgorliklarda ko‘ramiz.

Abstraktlik – g‘ayritabiiy timsollarning bitta belgisi, shuning uchun ham bu timsol mifologik mazmun kasb etgan va abstrakt holatda qadimgi turkiy adabiyotga o‘tgan. Tinsi timsoli To‘nyuquq yodgorligida ham bor. Ammo Tinsi timsoli bu yodgorlikda Bangligak tog‘ida istiqomat qiladigan xoqonning timsoli bo‘lib kelgan, ya’ni hamma xoqonlar Tinsi o‘g‘li unvoni bilan yuritilgan: Biz yama suladimiz, ani irtimiz. Jinchu oguzug kacha Tinsi ogli yatigma Bangligak tagig (To‘n. 44) – Biz yana jang qildik, ularni quvdik. Yinchu daryosini kechib, Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘ini...

Yinchu daryosi – hozirgi Sirdaryodir. Mazkur yodgorlikdan ma’lum bo‘lishicha, Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘i hozirgi O‘zbekiston hududida bo‘lgan edi.

Tinsi o‘g‘li g‘ayritabiiy timsolga mansub ekan, buning sababi faqat abstraktligi emas, balki badiiy va mifologik tafakkur asosida qadimgi turkiy adabiyotda ramziy timsolga aylanganidir.

«Irq bitigi» qadimgi turkiy miflarni ham o‘zida saqlagan asar sifatida muhimdir. Qadimgi turkiy miflarning boshqa xalqlar mifologiyasi bilan o‘xshash bo‘lgan asosiy xususiyati – mifning g‘ayritabiiy timsollarga tayanganidir.

¹¹ Китайская мифология / Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 1. – М.: Советская энциклопедия, 1991. – С. 656.

Aksariyat xalqlarda olamning paydo bo'lishi haqidagi mif yoki mifning afsonaga aylangan ko'rinishi bor. Bu miflar ma'lum bir xalqning koinot haqidagi tasavvur-tushunchalarini, atrof-olam haqidagi qarashlarini, olamni o'ziga xos ilmiy bilishga bo'lgan tushunchalarini ifoda etadi. Biz boshqa xalqlar mifologiyasidagi olamning paydo bo'lishi haqida mavjud miflarga to'xtalib tahlil qilishni ortiqcha deb bilamiz va bevosita «Irq bitigi»dagi shu mazmundagi mifga diqqat qaratamiz:

Uza tuman turdi, asra toz turdi, qush ughu ucha azti, kiyik oghli yuguru azti, kishi oghli joriju azti, jana tangri qutinga uchunch jilta qop asan tukul korushmish, qop ogirar sabinur tir. Ancha bilinglar: adgu ol (XV) – Yuqorida tuman paydo bo'ldi, pastda chang ko'tarildi, qush bolasi uchib (yo'lidan) adashdi, kiyik bolasi yurib (yo'lidan) adashdi, yana Tangri sharofati bilan uchinchi yilda butunlay eson-omon ko'rishdi, rosa xursand bo'lar, sevinar, der. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.

Olamning paydo bo'lishi haqidagi mazkur mifning boshqa shu tizimdagi miflardan farq qiladigan jihati shuki, tuman, chang, odam bolasi kabi timsollar o'ziga xoslik kasb etadi. Bular shunchaki detal yoki hodisa sifatida mavjud, ammo olamning yaratilishida ramziy timsol sifatida faoliyat ko'rsatishi g'ayritabiiylikdan iborat.

Yoki quyidagi mif qadimgi turkiylarning paydo bo'lishi haqidadir degan fikrni paydo qiladi: Baj ar qony urkupan barmish, borika soqishmish, bori aghzi amsimish, asan tukul bolmish, tir. Ancha bilinglar: adgu ol! (XXVII) – Boy odamning qo'yi hurkib, qochib ketgan, (u) bo'riga duch kelgan, bo'ri emishni xohlagan, (bo'ri) sog'-salomat qolgan, deydilar. Shunday bilinglar: yaxshidir bu!

Parchadagi bo'ri timsoli qadimgi xitoy yilnomalarida saqlanib, afsonada mavjud bo'lgan bo'rining aynan o'zidir. Afsonaga ko'ra, qadimgi turkiylarni jujanlar qirib tashlaydi. Ularning orasidan o'n yoshli bolani jujanlar o'ldirmasdan, uning oyoq-qo'llarini kesib, tashlab ketadilar. Oyoq-qo'llari kesilgan bu bolani bir ona bo'ri orqasiga ko'tarib, toqqa olib chiqib ketadi. Bola ulg'ayib, o'sha ona bo'riga uylanadi va undan o'nta farzand ko'radi. Ammo jujanlar baribir bolaning

tirik qolganini bilib qolib, o'ldiradilar¹². (Bu – Gerodot keltirgan skiflarning paydo bo'lishi haqidagi afsona bilan hamohanglik kasb etadi: Gerodot keltirgan afsonada Gerakl yarmi ilon, yarmi ayol shaklidagi jonzotga uylanib, uchta farzand ko'radi. Bo'ridan tug'ilgan eng kichik o'g'il Ashin turkiy qavmlar orasida eng nufuzli urug' bo'lganiday, Gerodot bilan yarmi ilon, yarmi ayoldan tug'ilgan Skif ham akalariga qaraganda, chaqqon va uddaburon chiqadi.) Shuning uchun qadimgi turkiylar tarixda «bo'ri avlodlari» deb nom oladi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda, turkiy ertaklarda, afsonalarda, dostonlarda (masalan, «O'g'uznoma»da) bo'rining yuqorida aytilgan afsonadagi arxaik, mifologik ma'nosi saqlangan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Garsia Lorca bir shoirga qanday maslahat bergan edi?
2. «Irq bitigi» haqida ma'lumot bering.
3. Maishiy folklorizm namunalari misol keltiring.
4. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari, Yakub Kolasning «Yangi yer» dostoni kabi qator asarlarni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Далгат У. Литература и фольклор. Москва: Наука, 1981. – 368 с
2. Alaviya M. Qizil olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent. Adabiyot va san'at, 1972. - 232 b.
3. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent: Fan, 1974. - 222 b.
4. Amilova M. O'zbek sovet adabiyotidagi folklor an'analari. Toshkent: Fan, 1990. - 124 b.
5. Karimov N. Hamid Olimjon she'riyatidagi folklor an'analari / O'zbek sovet adabiyoti masalalari. Toshkent: Muxlis, 1959 yil.

¹² Каранг: Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.–Л. Изд. Академии Наук СССР, 1950. – С. 221-222; Гумилев Л.Н. Древние тюрки, – М.: Наука, 1967, – С. 22; Рахмон Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993, – Б. 42-43.

2-MAVZU.

XALQ KITOBLARI, ULARNING SHAKLLANISHI, YUZAGA KELISH OMILLARI.

REJA:

1. *Kitobiy dostonlarning o‘ziga xosligi*
2. *Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari*
3. *Kitobiy va an’anaviy dostonlar munosabati*

Tayanch tushunchalar: klassik poeziya, klassik adabiyot, g‘azalnamo, she’riy formalar

Kitobiy dostonlarning o‘ziga xosligi. O‘zbek baxshilari repertuaridan mustahkam o‘rin olgan epik asarlarning maxsus bir turini — klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy mavbaga ega bo‘lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta’sirida yaratilgan asarlarni — kitobiy dostonlar deb yuritiladi.

Kitobiy dostonlar unga asos bo‘lgan manbaning xarakteriga arab, romanik yoki qahramonlik dostonlari xususiyatlarini o‘zida kam yoki ko‘p saqlagan bo‘lishi mumkin. Ularda sof folklor dostonlari uchun xarakterli bo‘lgan qahramonona jasorat, jangu jadallardagi jangovarlik nihoyatda sust berilib, asosiy o‘rinni ijtimoiy va oilaviy hayotning tashqi shart-sharoitlari bilangina kelisha olmagan zavqli, ko‘tarinki muhabbat temasining turli-tuman ko‘rinishlari egallaydi.

Kitobiy dostonlarning bir turi klassik adabiyot namunalarini baxshilarning qayta ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Barrom va Gulandom»ning xalq variantlari Alisher Navoiy asarlari asosida, «Yusuf va Zulayxo» shu syujetdagi forsiy va turkiy asarlar asosida, «Rustami Doston» «Shohnoma» asosida, «Sayful Malik» Majlisiiy asari asosida, «Varqa bilan Gulshox», «Vomiq bilan O‘zro» kabi ayearlarning xalq variantlari

esa forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan. Biroq ularning xalq dostonchisi repertuariga kelish jarayoni turli-tuman bo'lib, mazkur asarlar bilan ularning xalq variantlari orasida turli davr shoirlari, savodli kishilar va qissaxonlar tomonidan tuzilgan nusxalar ham bo'lgan. O'z navbatida bunday asarlarni yaratgan yozma adabiyot namoyandalari ham xalq ijodidagi rivoyat va afsonalarga tayanganlar. Boshhacha qilib aytganda, xalq orasida keng tarxalgan qadimiy afsona va rivoyatlar biror shoirning ijodiy laboratoriyasida yozma adabiyot obidasiga aylantirilgan. Keyinchalik ular bevosita yoki bivosita turli yo'llar bilan og'zaki epik an'anaga moslashtirilgan holda baxshilar repertuariga o'tgan.

Kitobiy dostonlar orasida yana shunday namunalar borki, ularning yaratilishida asos bo'lgan manbani to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish mumkin emas, ammo asarning temasi, uslubi, tasvir moxiyati kitobiy manbaga asoslanganligini va yozma adabiyotga yaqin turganligini aniq ko'rsatadi. «Sanobar», «Zexxon» kabi dostonlar shunday asarlardan xisoblanadi. Xorazm dostonchiligida, shuningdek, «Malikai Dilorom», «Tohir va Zuhra» kabi bir qancha dostonlarda og'zaki va yozma adabiyotning juda murakkab formalariga, turli-tuman adabiy traditsiyalarning o'ziga xos ravishda juda ham chatishib, chirmashib ketganligiga duch kelamiz. Bu murakkab jarayon hozirgacha maxsus tadqiqotlarga obyekt bo'lganicha yuq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yirik adabiyotshunos N. Mallayevning «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun» dostonlari bo'yicha ko'zatuylari muhim ahamiyatga ega¹³.

Kitobiy dostonlarda qahramonlarning sevgi kechinmalarining lirik tomonlariga alohida e'tibor beriladi. Qahramon yor uchun ajoyib-g'aroyib sarguzashtlarni boshidai kechiradi, oh-fig'on chekadi, uzun monologlarda ayriliq alamidan zorlanadi, yig'laydi, shikoyat qiladi, g'ayritabiiy kuchlarga yovoradi, ya'ni qahramon kechinmalari ba'zan diniy, ba'zan o'ta sentimental mohiyat kasb etadi. Kitobiy dostonlar ana shu xususiyatlari bilan ishq-muhabbat temasi asosiy

¹³ Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ орақки ижоди. Тошкент, 1974.

o‘rin olgan sof folklor dostonlari («Ravshan», «Kuntugmish» kabi)dan aljralib turadi.

Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari. O‘zbek dostonchiligida yozma adabiyot ta’siri murakkab ko‘rinishlarga ega. Xuddi shunday ta’sir va aks ta’sir natijasidagina o‘zbek xalq baxshilari repertuarida maxsus janr — kitobiy dostonlar paydo buldi. Bunday dostonlar («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» «Bahrom va Gulandom» va boshqalar) klassik poeziya namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasidir. Shuningdek, xalq kitoblari nomi bilan yuritilib kelinayotgan kattagina adabiy maxsulot borki, uning yozma og‘zaki manbalarini tekshirish adabiyot va folklor munosabatlariga doyr qiziqarli ma’lumotlar beradi. O‘zbek folkloridagi ishqiy- romanik dostonlar janrinning yuzaga kelishi va taraqqiyotini yozma adabiyot ta’sirisiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun xam V.M. Jirmunskiy va X.T. Zarifovlar xalq baxshilarining podsholar saroylari va shaharlarga qatnovi, professional xalq ashulachilari tomonidan klassik lirika namunalarining ijro etilishi, shahar va shahar atrofidagi qishloqlarda maxsus xonoqolarning mavjudligi bunday o‘zaro ta’sirga asosiy shart-sharoitlar yaratdi, busiz og‘zaki folklor janri – romanik dostonlarning rivojlanishi va taraqqiyotiga imkoniyat bo‘lmagan bo‘lar edi, deb ta’kidlagan edilar¹⁴.

Shunday romanik dostonlarning klassik namunalarini bergan baxshilar asosan Qo‘rg‘on qishloq dostonchilik maktabining vakillaridir. Shu dostonchilik maktabining so‘nggi talantli vakili Ergash Jumanbulbul o‘g‘li bo‘lib, undan yozib olingan va o‘zi yozib topshirgan doston va termalar dostonchilikka yozma adabiyot ta’sirini yoritish uchun ancha qiziqarli materiallar beradi. «U shoirlar qishlog‘i, shoirlar oilasida tug‘ilib o‘sganligi uchun ham – deb yozgan edi professor H. Zarif,— xar kuni qo‘shiq tinglar, shu bilan birga Alisher Navoiy, Fo‘zuli, Hofiz, Mirzo Abduqodir Bedil, Mashrab, Maxtumxuli asarlarining kichik devonlarini qunt bilan o‘qib borar edi. Bir tomondan, xalq shoirlaridan o‘rganish, dostonchilik yo‘llarini mukammal egallash; ikkinchi tomondan, o‘zbek, fors, ozarbayjon va

¹⁴ Ж и р м у н с к и й В. М., За р и ф о в Х. Т. Узбекский народный героический эпос. М., 1947, с. 281.

turkman klassiklari ijodi bilan tanishishi Ergash Jumanbulbul o'g'liga juda samarali natija berdi, uning ijodida bamisoli ikki kattakon daryo qo'shilib, bir ummon hosil qilgandek bo'ldi»¹⁵. Chindan ham Ergash shoir dostonlariga nazar tashlasak, undan yozma adabiyot unsurlarini, klassik adabiyotga xos she'r tuzilishi va poetik vositalarni istagancha topa olamiz.

Ma'lumki, g'azal yozma adabiyotda asosiy janrlardandir. Ergash shoir g'azaldan ustalik bilan foydalanib, dostonlarda qahramonlarning dialog va monologlarida uning yaxshi namunalarini beradi¹⁶. Shundaylardan biri «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mishning yori va bolalaridan ayrilib, gangib qolganida, tasodifan uchragan cho'ponning unga murojaatidir:

E, yori alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il,
 Ko'p ranju sitam ko'rgan, kaydin kelasan, ayril.
 Kim erding guli so'lgan, shum paymonasi to'lgan,
 Yoki bolasi o'lgan, qaydin kelasan, aygil...

Ergash shoir yuqoridagi g'azalni kimdan ilhomlanib yaratdi? Ma'lumki, Sobir Sayqaliyning «Bahrom va Gulandom» dostonidagi Bahromning gado qiyofasida Gulandom qasri oldiga kelib turganda, uning kimligini bilish uchun Gulandom noma yozib, kanizi Davlatdan berib yuboradi. Shu nomada yuqoridagidek gazal keltirilgan¹⁷. Ergash shoir uchun anna shu g'azal asosiy manba bo'lgan. Bu fikrni har ikki g'azalni oddiy qiyoslash tasdiqlaydi.

Kitobiy va an'anaviy dostonlar munosabati. Yozma adabiyot va an'anaviy dostonlar orasidagi munosabat muamosini bevosita Qo'rg'on dostonchilari, xususan Ergash Jumanbulbul o'g'li va Rahmatulla shoir ijodini tadqiq etish misolida keng yoritish imkoni mavjud. Klassik adabiyot namunalarini ko'p mutola qilan Ergash Jumanbulbul o'g'li va Rahmatulla shoir ulardagi she'r tuzilishi badiiy

¹⁵ Х о д и З а р и ф . Улмас даҳо. «Шар^ юлдузи», 1968, 12-сон, 175-бет.

¹⁶ Эпик асарга газал, мухаммас намуналарини киритиш анъанаси ёзма- адабиётда >^ам булган. Фузулийнинг «Лайли ва Мажнун», Сайцалийнинг «Барром ва Гуландом». дostonлари ва бонцалар бунга мисол б^ла олади.

¹⁷ С а й к а л и й. Бахром ва Гуландом. Нашрга тайёрловчи Р. Алиев. Тошкент, 1960, 91—92-бетлар.

tasviriy vositalar, she'riy leksika va boshqa unsurlardan folklor yo'lga moslab keng foydalangan. Xususan, Ergash shoirning original, g'azalnamo narsalar to'qishiga ana shu ta'sirlanish, ilhomlanish bosh sabab bo'ldiki, bu badiiy lavhalar dostonidagi obrazlarning ichki ruhiy holatlarini tasvirlashda matn bilan zanjirdek birikib ketgan:

Yangi tuqqan oyday botib boraman,
 Ajal yoqasini tutib boraman.
 O'zing rahm etmasang g'arib holima,
 Borsa kelmas yo'lga ketib boraman.
 Bir vaqtida arz so'ragan xon edim,
 O'zimni bir nonga sotib boraman.
 Xudoyo, go'daklar senga omonat,
 Qo'sh bolamni yetim etib boraman.
 Armon bilan yig'lab qoldi ortimda,
 Sanam yorimni unutilib boraman.

Demak, Ergash shoir o'z dostonlaridagi g'azallarida, birinchidan, klassik adabiyotimizdagi o'ziga ma'qul tushgai ayrim g'azallarning uslubini (vazn, qofiya, radif va tasviriy vositalarini) saqlagan holda yangi she'r yaratsa, ikkinchidan, uning janr imkoniyatlaridan foydalanib, ham mazmun, ham uslub jihatidan mustaqil g'azallar ijod qilgan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li o'z dostonlarida qahramonlar tilidan muxammas formasidagi chiroyli she'rlarni ham beradi. «Yakka Ahmad», «Kuntug'mish», «Alibek bilan Bolibek» va boshqa dostonlardagi qator she'riy parchalar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

«Alibek bilan Bolibek» dostonining Shahrizar malikasi Badiuljamolning Alibekka oshiqligi va unga yetishishini tasvirlovchi ikkinchi qismi o'zining syujeti jixatidan yozma adabiyotga (Majlisiyning «Sayful muluk» asariga) borib taqaladi. Bunda shoir yozma adabiy manbadan foydalanish bilan birga klassik she'riy formalarda ham bir qancha parchalar to'qigan:

Devlarim, parvoz etib taxti samoni axtaring,

Hamd aytib, tinmasdan ushbu muddaoni axtaring,
 Topmayin qo‘ymang bukun, dashtu daloni axtaring,
 Avvali Makka, Madina, Karbaloni axtaring...

«Kuntug‘mish» dostonida yoridan ayrilib; bir o‘g‘lini bo‘riga, ikkinchisini baliqqa oldirgan qahramon tilidan olti bandli badiiy go‘zal, ajoyib bir muxammas beradi. Kuntug‘mishning san‘atkorona yaratilgan bu monologini to‘lqinlanmasdan o‘qish mumkin emas:

Xonu monim bo‘ldi chun barbod dastingdan, falak,
 Bo‘lmadi g‘amgin bu ko‘nglim shod dastingdan, falak,
 Qilmading aslo dilim obod dastingdan, falak,
 To qiyomat dod etarman, dod dastingdan, falak,
 Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!..
 Deydi Kuntug‘mish otimni, men No‘g‘oyning xoniman,
 Dilbaridan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,
 Oldirib ikki ko‘zimni diydai giryoniman,
 Onadin baxti qapo tug‘dim, shuning hayroniman,
 Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Bu badiiy parchani o‘kir ekanmiz, beixtiyor klassik shoir Boborahim Mashrabning mashhur «Dastingdan» degan muxammasini eslaymiz. Chindan xam lirik qahramonning kayfiyatini berishda bu muxammasining ruhi va formasi juda mos tushgan. Shuning uchun xam atoqli folklorist Xodi Zarif Ergash ota hasida gapirganda, uning ba‘zan mashrabona satrlar ham yaratganligini qayd qilgan edi. Bunday parchalar doston qahramonlarining muayyan xolatdagi ruhiy dramalarini atroflicha ochishda muhim bir vosita rolini o‘ynagan.

Demak, yozma adabiyotning o‘zbek xalq dostonchiligiga ta’siri turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u xilma-xil aspektlarda zoxir bo‘lgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kitobiy dostonlarning o‘ziga xosligi deganda nimani tushunasiz?
2. Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari haqida ma’lumot bering.
3. Kitobiy va an’anaviy dostonlar munosabatlari o‘rtasidagi farqlar va

o'xshashliklarga misollar keltiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Далгат У. Литература и фольклор. Москва: Наука, 1981. – 368 с
2. Alaviya M. Qizil olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent. Adabiyot va san'at, 1972. - 232 b.
3. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent: Fan, 1974. - 222 b.
4. Amilova M. O'zbek sovet adabiyotidagi folklor an'analari. Toshkent: Fan, 1990. - 124 b.
5. Karimov N. Hamid Olimjon she'riyatidagi folklor an'analari / O'zbek sovet adabiyoti masalalari. Toshkent: Muxlis, 1959 yil.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG‘ULOT.

FOLKLOR BADIY-TASVIR VOSITALARI. MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOTDA FOLKLORIZM HODISASIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUV

REJA:

1. *“Folklorizm” so‘zi adabiy termin*
2. *Tadqiqotchi G‘.Mo‘minov folklor yozuvchi ongi va tushunchasi*
3. *M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitsistikada folklordan foydalanish*

Tayanch tushunchalar: *ibtido, “Hakim va ajal”, stilizatsiya, sintezlash, “folklordan foydalanish”, “folklor an‘analari”, “folklor ta‘siri”.*

“Folklorizm” so‘zi adabiy termin. Yozma adabiyotga, xususan, she‘riyatga xalq og‘zaki ijodining ta‘sirini o‘rganish XX-asrdan boshlab barcha xalqlar adabiyotshunoslari va folklorshunoslarini qiziqtirgan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Folklorning yozma adabiyotga ta‘siri, umuman, so‘z san‘at haqida ketar ekan, folklor ko‘plab san‘atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san‘at ildizlari folklor bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta‘kidlab o‘tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an‘analari ichida yashagan, uni o‘ziga singdirgan bo‘lsa, o‘sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtayi nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi.

Folklorshunos J.Eshonqulov ta‘kidlaganidek “...biz oyoq qo‘yib turgan tuproq zarrasidan tortib, ta‘bir joiz bo‘lsa, nafas olayotgan havomizgacha, farzandning tug‘ilishidan to insonlar yoshini yashab, oshini oshab vafot etgunga qadar bo‘lgan barcha jarayonlar, marosimlar, yashash tarzimiz, ongimiz, fikrimiz, tilimiz, kuyimiz qo‘shig‘imizgacha barchasi aytilgan-aytilmagan, to‘qilgan-to‘qilmagan, yozilgan-yozilmagan folklor. Bizni folklor o‘rab turibdi, zaminimiz ham folklor, osmonimiz ham. Olam va hayotning o‘zi folklor. Faqat

uni baxshilar va ijodkorlarga o‘xshab o‘qiy olishimiz kerak. Dunyoviy bilimlar, adabiyot, umuman har qanday san‘at eshigiga yo‘l mana shu milliy boylikni anglashdan, o‘zingga, ruhiyatingga singdirishdan boshlanadi”¹⁸.

Tadqiqotchi Sh.Turdimov folklor har bir odamning qonida borligi va har qanday til ibtidosida Ulkan bilimga tegishli tushunchalar mavjudligi, folklor bizga o‘zimizni, o‘zligimizni anglashga yordam berishi bilan ham qimmatli ekanligini qayd etib, folklor – ma’naviy ona sutidir, deya ta’kidlaydi. Shuningdek, folklorshunos fikrlarini davom ettirarkan, har qanday ijodkor, u qanchalik favqulodda talant va iqtidor sohibi bo‘lmasin, folklordagi kabi to‘kis an‘ana yaratishi qiyinligi, individual ijod ahli an‘anaga yangi quvvat bag‘ishlashi, uni yanada takomillashtirishi mumkinligi, an‘ana xalq badiiy tafakkurida pishib yetilishi, avloddan avlodga o‘tishi, bu jarayonda an‘analarning ildizlari juda qadimga borib taqalishini aytadi.

Akademik shoir G.G‘ulom 1939-yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston yozuvchilarining II-syezdida “Folklordan o‘rganaylik” mavzusida maxsus ma’ruza qilib, folklor asarlari o‘tmishning katta tarixiy hujjatlari bo‘lib, o‘sha folklor materialini o‘zlari ishlab chiqqan o‘tmishning ayrim sahifalarini izohlashga va o‘sha turmushda yashagan odamlar hayotini o‘rganishga katta qulaylik tug‘dirishini ta’kidlaydi.

Buyuk yozuvchi Ch.Aytmatov xotirasi bo‘lmagan, tarixi bo‘lmagan, ko‘hna asotirlar, afsonalarda, klassik adabiyotda aks etgan ma’naviy biografiyasi bo‘lmagan odam – ruhan qashshoqlikka mahkum va bunday odam murakkab zamonamiz hayotini anglashga ojizdir, deya qat’iy xulosa qiladi.

Folklorshunoslar va shoir-yozuvchilarning folklorning yozma adabiyotga ta’siri haqidagi fikrlarini adabiy faktlar orqali davom ettirsak ular qanchalar to‘g‘ri xulosa chiqarganliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston xalq shoir E.Vohidov o‘zining “Ruhlar isyoni” dostonida rivoyat va afsonalarga, xalq naqlariga keng suyangan holda kishilarning fojiali hayotini, murakkab qismatini tasvirlaydi. O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov “Hakim va ajal” dostoni Ibn

¹⁸ Эшонқулов Ж. Фолклор – миллатнинг боқий тарихи // Ёшлик. 2014. № 8

Sinoning hayoti va faoliyati haqida naql etuvchi xalq rivoyatlari asosiga qurilgan. Shoirning “Jannatga yo‘l” dramatik dostonida esa, qadimdan xalq o‘rtasida keng tarqalgan rivoyatlar asosida real hayotiy voqealar haqida so‘z yuritiladi.

Shoir O.Matjon “Haqqush qichqirig‘i” asarida afsonalar orqali zamon voqealarini ifodalashni niyat qilganini alohida ta’kidlaydi: “Men bu kitobga jamlangan afsonalar ehtiyot va e’tiqod bilan yondashib sayqal berdim, har kundagi va abadiy ma’naviy ehtiyojlarimizga mos “libos mavzun” kiydirdim. Bu – orqaga ketish emas, chekinish emas! Bu – tezligimiz, sur’atimiz oshgani sababli bizdan orqada qolib ketayotgan eski do‘stlarimiz – ezgulik, samimiyat, tabiiylikni birga olib ketish uchun bir zumlik qayrilish, xolos!”¹⁹.

Umuman olganda, yurtimiz hududida yaratilgan ilk yozma manbalardan biri sanaluvchi “Avesto”dan tortib turkiy xalqlarning mushtarak merosi bo‘lgan O‘rxun-Enasoy toshbitiklarigacha, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridan to Navoiy ijodi hamda keyingi davrlardagi yozma adabiy merosgacha folklor ta’siri yaqqol sezilib turadi.

Tadqiqotchi G‘.Mo‘minov folklor yozuvchi ongi va tushunchasi. Tadqiqotchi G‘.Mo‘minov folklor yozuvchi ongi va tushunchasi xotirasiga faqat bevosita ijodiy o‘zlashtiradigan badiiy materialgina bo‘lib qolmay, ayni chog‘da yozuvchining tasavvurini qo‘zg‘ovchi, unga turtki beruvchi boy haqiqiy assosiativlar tug‘diruvchi, tasvirlanuvchi voqelikni to‘la va o‘z bo‘yog‘ida bera oluvchi turli murakkab taassurotlar yaratuvchi kuchli badiiy xazina ekanligini ta’kidlaydi.

Keyingi yillardagi folklor va yozma adabiyot munosabatlari o‘rganilgan tadqiqotlarni kuzatsak, ilmiy izlanishlar asosan folklorizmlar tushunchasi doirasida kechganini ko‘ramiz.

Ilmiy lug‘atlarda folklorizm (inglizcha folklorismus) – badiiy adabiyotda (teatrda, jurnalistikada, she’riyatda va hokazo) folklordan foydalanish, shuningdek, folklorni tushunish, moslashtirish va o‘zgartirish deya ta’riflanib,

¹⁹Ўша асар. 16-17 бетлар.

an'anaviy folklorni zamonaviy madaniyatda aks ettirish imkoniyatini berishi ta'kidlangan.

“Folklorizm” so‘zi adabiy termin o‘laroq dastlab XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiyo tomonidan qo‘llanilib, “folklor bilan qiziqish va shug‘ullanish” ma’nosini ifodalagan. Rus adabiyotshunosligida XX asrning 30-yillariga kelib M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitsistikada folklordan foydalanishni folklorizm deb atadi. Shu asrning 60-yillarida “folklorizm” istilohini qo‘llash xalqaro tus ola bordi va keng yoyildi. Xususan, M.K.Azadovskiy, P.S.Vixodsev, V.B.Agrba, L.I.Yemelyanov; G.A.Levinton, U.B.Dalgat, A.A.Gorelov, keyinchalik YE.G.Pozdnyakova, L.P.Bessonova kabi tadqiqotchilar folklorizm hodisasini ilmiy izohladilar.

M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitsistikada folklordan foydalanish. Rus adabiyotshunosligida M.K.Azadovskiy A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, V.G.Belinskiy, N.G. Chernishevskiy, N.L.Dobrolyubov kabi ijodkorlar asarlaridagi folklorizmlarni keng o‘rgandi. Olim folklorizm xususiyatlarini qayd qilar ekan, har bir xalqning va har bir ijodkorning o‘z folklorizmi bo‘lishini alohida ta’kidlaydi²⁰. Shu tariqa ilmda “Pushkin folklorizmi”, “Lermontov folklorizmi”, “Karamzin folklorizmi” kabi istilohlar paydo bo‘ldi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, butun ijodining boshdan oxir folklor namunalariga qarishiqligi tufayli bugun bemalol To‘ra Sulaymon folklorizmi, Erkin Vohidov folklorizmi, Oybek folklorizmi istilohini qo‘llash mumkin. T.Sulaymon folklorizmi badiiy matnni qurish, uning ritmini shakillantirish, g‘oyaviyligini oshirish, xalqchilligi va ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Shoirning *“Daryo suvin bahor toshirar, sozim, Inson qadrin mehnat oshirar, sozim”* kabi satrlarida xalq maqoli o‘zgarishsiz qo‘llanilishidan oddiy folklorizm, *“Kushoyish har kuniga, Xotirjamlik tuniga. Biriga o‘n, o‘niga Yuzin berisin ilohim”* to‘rtligida xalq olqishlari asnosida analitik folklorizmlar yuzaga

²⁰ Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. М.-Л.: Гослитиздат. 1960.–С. 222-223

kelgan.

Umuman, o'zbek she'riyatida ijodkorlarning folklordan ta'sirlanishi va undan ijodiy foydalanishi masalasi N.Mallayevning "Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi", "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti", N.Karimovning "Hamid Olimjon poeziyasida folklor traditsiyalari", G'.Mo'minovning "Hamza va xalq og'zaki ijodi", "Izlanishlarimdan qatralar", O.Nosirov va O.Sobirovning "Xalq ijodi xazinasini", O.Sobirovning "Folklor an'analari haqida mulohazalar, "O'zbek sovet adabiyotida folklor va folklor an'analari", "Sarchashma adib ijodida", B.Sarimsoqovning "Folklorizm tipologiyasiga doir", I.Yormatov "Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari", M.Amilovning "O'zbek sovet adabiyotida folklor an'analari", O.Safarovning "Folklor va bolalar adabiyoti", "H.Olimjon she'riy adabiy ertaklari", D.Xoliqova "Hozirgi o'zbek she'ritida folklorizmlar" D.Xoliqovanning "Hozirgi o'zbek she'riyatida folklorizmlar", L.Sharipovanning "XX-asrning 70-80 yillari o'zbek she'riyatida folklorizm" kabi tadqiqotlarida ifoda etildi.

Folklor va adabiyot munosabatlariga doir tadqiqotlarni tahlil qilgan folklorshunos B.Sarimsoqov ayrim ishlarda asosiy diqqat yozma adabiyot bilan bog'liq muammolarga yo'naltirilib, folklorizmlar faqat badiiy vosita sifatida qaralgani, ayrimlarida individual ijodkor mahorati folklorizm soyasida qolib ketgani, folklor va adabiyot munosabatlarini to'g'ri hal etish uchun bu munosabatlarning ko'rinishlari, har bir ko'rinishning o'ziga xos xususiyatlari, ularni harakatlantiruvchi qonuniyatlar va bu qonuniyatlarning evolyutsiyasi kabi masalalar konkret hal qilinmog'i lozimligini ta'kidlaydi hamda o'zbek adabiyoti xususiyatlaridan kelib chiqib, folklorizmning dastlabki tasnifini yaratdi. Keyinchalik, I.Yormatov "Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari", "Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar", "Hozirgi o'zbek lirikasidagi sintezlashgan folklorizmlar xususida" nomli maqolalarida folklorizmlar tabiati va tasnifi haqida so'z yuritdi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov rus folklorshunosi L.Yemelyanov fikrlariga

tayanib folklor va adabiyot munosabati o‘z xarakteri jihatidan ikki xil ekanligini, bular folklor va adabiyot o‘rtasidagi genetik (bevosita) aloqadorlik hamda har ikkisining bilvosita – folklorizmlar orqali aloqasi mavjudligini ta’kidlaydi. Genetik aloqadorlikda voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirish sohasida so‘z san’atining ikki tipi o‘rtasidagi tajriba almashinish xususida so‘z yuritilishi lozimligi, genetik aloqadorlik masalasi faqat nazariy jihatdan hal qilinmog‘i maqsadga muvofiligini, folklorizmlar folklor va adabiyot munosabatlarini belgilovchi asosiy omil hisoblanishini qayd etadi.

Rus folklorshunosi K.V.Chistov ifodasiga ko‘ra, folklor voqelikni aks ettirishdagi “birinchi shakl”, folklorizm esa “ikkinchi shakl”dir.

B.Sarimsoqov qayd etishicha, biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir “ishlov” berilgan bo‘ladi. Mazkur fikrni tadqiqotchi L.Sharipova ham to‘la qo‘llab-quvvatlab, “Folklorizm xalq og‘zaki ijodiyotiga mansub janr, syujet, obraz, motiv, ritmning individual ijodkor tominidan o‘zlashtirilib, aynan yoki qayta ishlangan yoxud ularga monand holda yaratilishidan iboratdir”, deya xulosa qiladi. Yozma adabiyot yoki boshqa san’at turlari tarkibidagi folklorga oid barcha material endi o‘zining tabiiy ravishdagi yaratilishi, jonli yashashi va funktsiya bajarishidan iborat bo‘lmay, balki o‘sha materialning professional ijodkor tomonidan, birinchi navbatda, davr talabi, qolaversa, uning ijod manerasi va uslubi kabilar bilan bog‘liq holda ijodiy maqsadi asosida izchil yo‘naltirilgan, ikkinchi marta jonlantirilgan shaklidan iborat.

Folklorshunos O.Sobirov tadqiqotlarida birinchilardan bo‘lib o‘zbek folklorizmini ilmiy tasniflashga intilgan. U folklor namunalari va tajribalarini o‘zlashtirish, folklor an’analarini davom ettirishning besh shaklini ko‘rsatib o‘tadi: 1) folklor an’analarini yozuvchi yaratgan asarning g‘oyaviy-badiiy ruhiga singib ketishi; 2) folklor syujetlarini qayta ijodiy ishlash orqali zamonaviy asar yaratish; 3) folklor syujetlari va motivlarini o‘zlashtirgan holda asar yaratish; 4) xalq poeziyasi stili, formasi va priyomlari yo‘lida zamonaviy qo‘shiqlar

yaratish; 5) xalq dostonlari yoʻlida zamonaviy doston yaratish.

Mazkur tasnifga folklorshunos B.Sarimsoqov eʼtiroz bildirarkan, O.Sobirov “folklorizm” atamasi oʻrniga “folklor anʼanasi” kabi oʻta umumiy atamani qoʻllagani, “folklor anʼanalari” atamasi, ayni paytda, “folklorizm” tushunchasi doirasiga kirmaydigan kengroq tushunchalarni ham oʻz ichida qamrab olishi, agar “folklor anʼanalari” atamasiga folklor va adabiyot munosabatlarining ikki tipi nuqtai nazaridan yondashsak, u oʻzida ham bevosita, ham bilvosita aloqadorlikni mujassamlashtirishini taʼkidlab, maqolada folklorizmlar tipologiyasi masalasi konkret tarzda emas, balki juda ham umumiy, ayni paytda, mavhum tarzda qoʻyilgan va hal etilganini qayd qiladi.

Tadqiqotchi L.Sharipova ham B.Sarimsoqov eʼtirozlarini qoʻllab-quvatlagan holda O.Sobirov folklorizm turlarini toʻgʻri va toʻkis taʼriflay olmagan deya xulosa qiladi.

B.Sarimsoqov oʻzbek adabiyotida mavjud folklorizmlarni struktura hamda badiiy asar toʻqimasida bajargan funksiyasi jihatidan ikki tipga – oddiy va murakkab folklorizmlarga ajratadi. Oddiy folklorizmlar biror yozuvchi yoki shoir ijodida xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, ogʻzaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlarning qoʻllanilishidan tashkil topadi. Individual ijodkorlarning asarlarida qoʻllanilgan folklorga oid materialning badiiy asar tarkibida yaqqol ajralib turishiga qarab bu tipdagi folklorizmlar “oddiy” aniqlovchisi bilan yuritiladi²¹. Tadqiqotchi oʻrinli taʼkidlaganidek, oddiy folklorizmlar badiiy asardagi personajlar nutqining tipikligini taʼminlashda katta rol oʻynaydi. Oʻzbek adabiyotshunosligida folklor va adabiyot munosabatlari koʻproq oddiy folklorizmlar doirasida tadqiq qilinmoqda. I.Yormatov esa B.Sarimsoqov oddiy folklorizm deb hisoblagan bu hodisani ichki koʻrinishlarga boʻladi. U oddiy folklorizmlarni qoʻllanishiga koʻra asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar tarzida ikki guruhga ajratib, B.Sarimsoqov tasnifini birmuncha toʻldiradi. Yaʼni, maqol yoki matal aynan qoʻllansa, asl

²¹Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 92.

oddiy folklorizmni yuzaga keltiradi. Maqol yoki matal qaysidir jihatdan o'zgartirib qo'llansa, qayta ishlangan oddiy folklorizm hosil bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, maqol va matal o'zlashtirilish natijasida hosil bo'lgan oddiy folklorizm bor joyda doimo irsoli masal badiiy san'ati yuzaga keladi.

B.Sarimsoqovning murakkab folklorizmlarni tabiati, badiiy asarda bajargan funksiyalariga qarab, uch tipga bo'lish taklifiga L.Sharipova qo'shiladi va mazkur fikrlarni yanada boyitadi. Ular asosli ravishda qayd etganlaridek, murakkab folklorizmlarni analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarga ajratish maqsadga muvofiq.

“Analitik folklorizmlar asarning badiiy to'qimasi, uning yetakchi g'oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatdan xarakterlanadi. Ijodkor o'z asariga o'z o'rnini bilan folklorga oid biror motiv yoki syujetni qistirib ketadi va shu orqali o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan epizodga falsafiy-didaktik ruh bag'ishlashga, tasvirning emotsionalligini oshirishga erishadi”.

“Sintezlashgan folklorizmlar asarning badiiy to'qimasini, uning g'oyaviy-tematik asoslarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham u ijodkordan folklor janrlarining yetakchi xususiyatlarini, ularning poetik imkoniyatlarini, eng muhimi, folklor asarlarining asrlar davomida o'lmasligini ta'minlovchi yetakchi insoniy g'oyalarni to'g'ri ilg'ab olish va ularni o'z davrining muhim muammolari bilan bog'lay olishni talab etadi”²². Bunday folklorizmlar tabiatini aniq tasavvur qilish uchun B.Sarimsoqov Omon Matjonning “Haqqush qichqirig'i” asarini misol tariqasida keltirib, asardagi barcha rivoyat, afsonalar bir maqsad – davrimizning dolzarb masalalari bo'lmish Vatanga muhabbat, do'stlik, tinch-totuv yashash, baxt uchun kurash kabi insoniyat butun tarixi davomida intilib kelgan boqiy mavzularga yo'naltirilgani, bu mavzular yangi davr talablari bilai yo'g'rilganligi sababli asar o'ziga xos originallik kasb etganini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi G'.Mo'minov ham O.Matjonning aynan “Haqqush qichqirig'i” asari haqida fikr bildirib, u qirq afsona asosiga qurilgani, lekin bular shunchaki

²²Ўша манба. – 95-96-бетлар.

afsonalarni qayta hikoya qilib berish emas, balki shu afsonalar asosida yaratilgan she'rlarning mantiqida muhim hayotiy problemalar yotishi, shoir dunyo voqealari, kishilar munosabati, ularning taqdir va qismatlari, ular zimmasidagi mas'uliyat, hayotning kichik zarralarida namoyon bo'luvchi muammolari xususida mushohada yuritgani, o'quvchini ham hayot jumboqlari haqida, kelajak haqida fikr yuritishga chaqirganini qayd etadi.

B.Sarimsoqov stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarni o'z xarakteri jihatidan ikkiga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq hisoblaydi. Bular ijobiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar hamda salbiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar. Tadqiqotchi birinchi tipdagi folklorizmlar, asosan, folklor materiallarining ham g'oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga to'liq tayangan holda ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga kelishini ta'kidlab, H. Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg", Sobir Abdullaning "Tohir va Zuhra", Komil Yashinning "Ravshan va Zulxumor" kabi asarlarini misol tariqasida eslatadi. Uning fikricha, salbiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar asosida yaratilgan asarlarda, asosan, zamonaviy mavzular qalamga olinsa-da, biroq ular traditsion folklorga xos tasvir vositalari, xullaski, shakliy komponentlar vositasida tasvirlanadi. Traditsion folklorga xos tasvir vosita va usullarining yangi voqelikni butun qirralari hamda murakkabligi bilan aks ettirishga qodir emasligi folklor asarlarining shakliy komponentlariga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan har qanday stilizatsiyani muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Folklorshunos "O'zbek adabiyotida saj" asarida "Qorasoch" dostoni haqida so'z yuritarkan, undagi Hojar momo obraziga alohida to'xtalib, mazkur obraz xalq dostonlaridagi maston kampirlar obraziga stilizatsiya qilish natijasida yaratilganini aytadi.

B.Sarimsoqovning "murakkab folklorizmlar tarkibiga kiruvchi analitik folklorizmlar, asosan, epik janrlarda qo'llanishga mos bo'lib, lirik janrlar tabiati bu tipdagi folklorizmlarni ko'tara olmaydi. Sintezlashgan folklorizmlar esa ham epik, ham lirik, ham dramatik turlarga xos janrlarda qo'llashga qulayligi bilan ajralib

turadilar”, degan xulosasi, bizningcha, bahstalabdir. Masalan, shoir M.Abdulhakimning “Ta’birsiz tush”²³ nomli sakkiz satrlik she’ri tush motivi asosiga qurilgan bo’lsa, “Arzsarlavhali she’rida mashhur rivoyatni keltirib o’tadi. Shuningdek, O’zbekiston xalq shoiri I.Mirzo “Sevgilim” nomli lirik she’rida ertaklardagi jang, qahramon g’alabasi va hiylagar kampir tuzog’i kabi motivlardan foydalanarkan she’rni “Axir, bu – ertak-ku, axir bu – xayol” satrlari bilan yakunlaydi. Bundan tashqari, shoir S.Ashur “Ertak” nomli she’rida cho’lda adashgan qahramon, olisdagi shu’la, kulba va kulbadagi chiroyli qiz singari ertak motivlaridan unumli foydalanadi. Bir qarashda keltirilgan misollarda motiv stilizatsiya asosiga qurilgan folklorizmlargina mavjuddek taassurot beradi. Lekin B.Sarimsoqovning analitik folklorizmlarga bergan ta’rifidan kelib chiqsak, yuqoridagi she’rlarda “ijodkorlar o’z asarlariga o’z o’rni bilan folklorga oid biror motiv yoki syujetni qistirib ketgani va shu orqali o’zi tasvirlamoqchi bo’lgan epizodga falsafiy-didaktik ruh bag’ishlashga, tasvirning emotsionalligini oshirishga erishganini” anglaymiz. Bundan xulosa qilish mumkinki, nafaqat epik janrlar, balki lirik janrlar tabiati analitik folklorizmlarni ko’tara oladi.

Tadqiqotchi L. Sharipova folklorshunos B.Sarimsoqov fikrlarini davom ettirib, “folkloridan foydalanish”, “folklor an’analari”, “folklor ta’siri” kabi turlicha istilohiy birikmalar mohiyatan folklorizm tushunchasiga mosligi, lekin ularni doimiy ravishda folklorizm tushunchasiga nisbatan qo’llash muayyan chalkashlikka olib kelishi ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, folklor an’analari deganda, xalq og’zaki ijodiga xos ifoda uslubi, badiiy shakllar va tasvir vositalari, epik motiv va obrazlar, marosim hamda urf-odatlariga xos tushuncha va qarashlarning faqat folklor asarlarida saqlanib qolishi, ularni poetik ifodalashning davom ettirilishi anglashiladi. S.Mirzayevaning “O’zbek realistik adabiyotida folklor an’analari” ko’llanmasida “folklor an’analari” atamasi yozma realistik adabiyot namunalarida folklorga xos yuksak g’oyalarni, badiiy shakllarni davom ettirishga nisbatan istifoda etilgan. “Holbuki, bu holat folklorizm tabiatini o’zida

²³ Матназар Абдулҳаким. Жавзо ташрифи. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяси, 2008. – Б. 33.

namoyon etadi. Chunki yozma adabiyotda folklor an'analari davom etmaydi, balki folklor materiali aynan o'zlashtirilishi yoki g'oyaviy-badiiy, kompozitsion jihatdan biroz o'zgartirilib, unga ijodiy ishlov berilishi mumkin. Demak, folklor ta'sirida yozma adabiyot namunasiga folklor an'alariga xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishidan, qayta talqin etilishidan fol'klorizmlar yuzaga keladi" deydi L.Sharipova.

B.Sarimsoqov folklorizmlar tabiatini tadqiq qilarkan: "Folklor va yozma adabiyot munosabati o'z ichiga ijodkor ijodidagi oddiy folklorizmlarni aniqlashdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchilik, milliylik va baynalmilallik, ijodkorning filklordan ijodiy foydalanish yo'llari va usullari, u yoki bu san'atkor mahoratining yo'nalishi va unda folklor an'alarining ta'siri muammolarigacha qamrab oladi", – degan fikrni ilgari suradi.

Asardagi folklorizmni topish uning asarda tutgan o'rnini, poetik vazifalarini aniqlash uchun zarurligini ta'kidlarkan, L.Sharipova "Asaragi folklorizmni topish deganda: a) uning tipini aniqlash; b) syujetdagi o'rnini belgilash; v) g'oyaviy-badiiy qimmatini baxolash nazarda tutilishi lozimligini qayd etadi

I.Yormatov stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarni murakkab folklorizmlarning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri deb qaraydi. Uning fikricha, stilizatsiya jarayonida yozuvchi folklorshunoslik qonuniyatlariga qat'iy amal qilishi, folklor materialining g'oyaviy-kompozitsion butunligiga putur yetkazmasligi, folklorga xos rivoyaviy bayon uslubini o'zgargirmasligi lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qo'rg'on qishloq dostonchilik maktabining vakillarini sanang.
2. Ergash Jumanbulbul o'g'li o'z dostonlarida qahramonlar tilidan muxammas formasidagi chiroyli she'rlarni ham beradi. Bu qanday asarlarda o'z ifodasini topgan?
3. Kitobiy dostonlarning bir turi klassik adabiyot namunalarini baxshilarning qayta ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Bularga misol keltiring.
4. Kitobiy dostonlar bular?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар. Масъул муҳаррир. – Т.: Sharq, 2016.
2. Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
3. Ўзбек халқ оғзаки ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. I-VIII жилдлар. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2016.
4. N. Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Т.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017
5. N. Rahmonov. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Т.: “MUMTOZ SO‘Z” nashriyoti, 2016.

2-AMALIY MASHG‘ULOT.

ADABIYOT VA FOLKLORNING O‘ZARO ALOQALARIGA OID NAZARIY QARASHLAR

REJA:

1. *Garsia Lorka bir shoirga maslahati*
2. *Paydo qiluvchi folklorizmlar*
3. *Abstraktlik*

Tayanch tushunchalar: *“Vizantiya, struktur-informativ, folklorizm, slavyan, maishiy folklorizm, paydo qiluvchi folklorizmlar, “Irq bitigi”, tinsi.*

Folklor va yozma adabiyotning aloqalari bilan dunyo xalqlari adabiyotshunosligi shug‘ullanib keladi. Ayniqsa, yozma adabiyotning ilk davriga oid tadqiqotlarda albatta, folklor obrazlari yoki syujetlari va motivlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiy harakat qanchalik boy va ko‘p qirrali bo‘lsa, adabiyotda folklorning in’ikosi shuyechalik chuqur va asosli bo‘ladi. Garsia Lorka bir shoirga shunday maslahat bergan edi: “Xalqdan faqat mohiyatning mag‘zini olish kerak., ammo hech qachon xalq ovozi anglab bo‘lmas jarangdorligini aynan aks ettirishga urinish kerak emas, chunki biz faqat nozik tarbiyamiz kuchi bilan mohiyat mag‘zini xiralashtirib qo‘yishimiz mumkin. Har qanday stilizatsiya, nosamimiylilikni va behuda o‘yinni keltirib chiqarayotganday bo‘ladi.”Lorka bu gaplari bilan folklordan foydalanish meyorini bo‘lishi kerakligini uqtirmoqda. M.Gorkiyning ham shu mazmundagi gap bor. Hammaga ma’lum bo‘lgani uchun u haqda to‘xtalmaymiz.

Folklor va yozma adabiyot munosabatlarida stil, ya’ni usul asosiy omil ekani haqida o‘tgan asrning 20-30-yillarida M.Xrapchenko jiddiy qarashlarini aytib , adabiyot va folklor munosabatlariga tizimli yondashuv zarur ekanini ko‘rsatgan edi. Usul organik jihatdan yaxlitlik kasb etib, har ikkalasining usuli bir tizimni hosil qilishi kerak. Har bir xalqning adabiyotida folklor vayozma adabiyot bir

tizimni hosil qiladigan va tizim alohida ajralib turadigan davrlar bor.

Jumladan Rus adabiyotining X-XIII asrdagi holatiga e'tibor beraylik. Bu davrda rus adabiyoti o'z janrlarini Vizantiya va Bolgariyadan o'zlashtirgan deb bimalol ayta olamiz. Ammo hamma janrlarni ham o'zlashtirmagan. Bu xalqlar adabiyotidagi bir qism janrlar Rus adabiyotiga o'tmadi. Zotan ijtimoiy hayot nokerak hisobangan janrlarni qabul qilishni zarur deb bilmadi. Masalan kandak janri (sodda qilib aytganda ibodat poemalari) Vizantiya adabiyotida bor. Bu janr rus adabiyotiga o'tmadi. Ilk Vizantiyaning yorqin iste'dodlaridan biri shoir Roman Sladkopevetsdir (V asr oxirida tug'ilib, 555-yildan keyin vafot etgan). U Bayrutda tug'ilgan. Roman o'z ijodida suryoniy va yunon an'alarini omuxtalashtirdi. Uning buyuk xizmatlaridan biri jamoatlar yig'inida kuylanadigan madhiyalarda yangicha poetik shakllarni - ibodat poemalarini, ya'ni kandak janriga mansub poemalarni yaratgan. Bora - bora bu janr pravoslav jamoatlarida Xudoni madh qilishda bosh o'rin egalladi. Uning ijodida ijtimoiy hayot, xalqona tafakkur mahsuli bo'lgan she'rlar ham o'rin olgan.

Badiiy asarlarning shunday turlari borki, ular folklor asarlari bo'lishi bilan birga, yozma adabiyotning ilk namunalari ham hisoblanadi. Bu asarlar organik folklorizmlar deb nomlanib, bu guruhga katta hajmdagi asarlarni kiritish mumkin. Namuna sifatida «Maxabxorot», «Odisseya», «Rigveda», «Kalevala» (karelo-fin eposi) kabi yodgorliklarni kiritish mumkin.. Bular yangi sifatga ega bo'lgan folklor asarlari deb ataladi. **Struktur-informativ folklorizmlarga** slavyan yilnomalari mansub. **Maishiy folklorizm** namunalariga — Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari, Yakub Kolasning “Yangi yer” dostoni kabi qator asarlarni kiritish mumkin. H.Olimjonning

Paydo qiluvchi folklorizmlar — bu guruhga Gogolning (Rojdestvo arafasidagi tun) «Ночь перед Рождеством» qissasi, L. N. Tolstoyning hikoyalari va masallari, Bulgakovning «Master va Margarita», romanini kiritish mumkin. O'zbek adabiyotida Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy ” asari bu turkumdagi folklorizmlarning eng jonli namunasi. Qisasi Rabg'uziy”dagi qissalarning

qahramonlari tasviri, turli janrlar hikoyat, riaoyat, latifa kabi bir qator janrlar folklordan olingan.

Qadimgi turkiy adabiyotning folklor bilan aloqalari to'g'risida so'z ketganda biz ikki sistemaning – folklor va yozma adabiyotning o'zaro yaxlitlashuvini nazarda tutishimiz kerak. Qadimgi turkiy adabiyotning yuzaga kelishida yoki shakllanishida folklor motivlari, syujetlari, badiiy tasvir vositalarining rolini alohida ta'kidlashimiz lozim. Qadimgi turkiy yodgorliklar yozma adabiyot namunasi sifatida bevosita va bilvosita folklor zaminida o'sib chiqqan va folklor va yozma yodgorliklar bir tizim holiga kelgan. Turkiy eposlar qadimgi turkiy yodgorliklarga manba bo'lgan bo'lsa-da, qadimgi turkiy yodgorliklarning tuzilishini belgiyovchi asosiy omil deb qaramaslik kerak. Eposlar yodnomalar uchun murakkab adabiy sintez komponentlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Adabiy sintez yodgorliklarning butun tarkibida bor. Jumladan epitetlar va ularning turlarini olib qaraylik. Yodnomalarda asosan doimiy epitetlar (bilga, alp, yag'iz, iduq va b.) qo'llanadi. Mazkur epitetlarning vazifasi, bir tomondan, ko'tarnkilikni hosil qilish, ikkinchi tomondan, esa ideal qahramonlar obraziga asos solishdir.

Bilga qag'an armis, alp qag'an armis, ayg'uchisi bilga armis arinch. Alp armis arinch, buyruqi yama bilga armis arinch, alp armis arinch, baglari yama, boduni yama tuz armis (Ktu, 3)- Dono xoqon ekan, bahodir xoqon ekan, buyruqchilari ham dono ekan, shekilli, bahodir ekan shekilli, beklari ham, xalqi ham to'g'ri ekan,

Yuqoridagi epitetlarning asosiy vazifasi ideallashtgan xoqon obraziga asos solishdir. Ideallashtgan obraz eposlarga xos, ammo yodnomalardagi xoqonlar tarixiy shaxslardir.

Yozma adabiyot va folklorning o'zaro munosabatlarining turli-tumanligini "Irq bitigi" misolida ko'rish mumkin. «Irq bitigi» sinkretik tafakkur va dunyoqarash mahsuli, unda inonch e'tiqodlar ham, badiiy tafakkur ham, g'ayritabiiy timsollar ham bor. Asardagi adabiy parchalar, shubhasiz, miflarni o'zida saqlagan. Qadimgi turkiy yodgorliklar orasida miflarni o'zida saqlagan yozma yodgorlik «Irq bitigi»dir. «Irq bitigi» – mifologik timsollar asosiga qurilgan

asar. Asardagi mifologik timsollar, birinchi navbatda, qadimgi turkiylar madaniy muhitida yaratilgan va an'anaviy ravishda yashab kelgan kultlarga tayanadi. Kultlar esa, o'z navbatida, ramziy timsollarni keltirib chiqargan. Ramziy timsollar esa g'ayritabiiy timsollar sifatida mifga tayanadi. Mif – kult – ramziy timsol – g'ayritabiiy timsollar munosabatlari «Irq bitigi»ning, umuman, qadimgi turkiy adabiyotning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi omillarsiz yoki jarayonsiz «Irq bitigi»ni talqin va tahlil qilish mumkin emas. Bu yozma yodgorlikdagi aksariyat hikoyatlar epik syujetga asoslangan. Yodgorlikdagi kichik hikoyatlarning deyarli hammasida udumlar ham, inonch-e'tiqodlar ham bor bo'lib, badiiy tafakkur mahsuli sifatida g'ayritabiiy timsollarni hosil qilgan. «Irq bitigi»dagi hikoyatlarda timsollar, xususan, g'ayritabiiy timsollar bor, degan fikrni o'rtaga tashlashimizga sabab ham mifologik timsollarga yoki mifologik syujetlarga tayanganidir. Qadimgi turkiy adabiyotda ikkita «Irq bitigi» bor bo'lib, bittasi urxun yozuvida bitilgan va VIII asrga tegishli; ikkinchi «Irq bitigi» moniy yozuvida va qadimgi turkiy tilda bitilgan bo'lib, IX asr boshlariga aloqador. Mazmun va mohiyati, syujet qurilishi jihatidan har ikkala «Irq bitigi» bir-biridan tamomila farq qiladi. Demak, timsollar tizimi jihatidan ham har ikkala «Irq bitigi» bir-biridan farq qilishi tabiiy.

Ammo har ikkala «Irq bitigi»ning umumiy xususiyatlari ham bor. Irq bitiklarining yaratilishidan maqsad – insonlarning ruhan boyishi, ular o'rtasida sog'lom muhit yaratish edi. Shu ma'noda, ta'birmomalarni faqat folbin va ta'birchilarning o'ylab chiqargan g'oyalari emas, balki hayotiy mazmun kasb etgan qarashlarining mahsuli, deb ifodalash maqsadga muvofiqdir. Ta'birchilar g'oyalarni xalqning o'zidan olganlar.

«Irq bitigi» haqida turkologlar ayrim fikrlarni aytib o'tganlar. Qadimgi turkiy muhitda yakkayu yagona qog'ozga yozilgan bu asarni ingliz arxeologi Arnold Steyn Sharqiy Turkistonning Dunxuan shahridan topgandan so'ng (1907-yili), birinchi bo'lib Vilgelm Tomson tadqiq etdi va 1912-yili «Journal of the Royal Asiatic Society» jurnalida Leypsigda chop ettirdi. Shuningdek, S.YE.Malov bu

asarni qadimgi turkiy yozuvdan transkripsiya qilib, rus tiliga tarjimasini berdi.²⁴ Nemis olimi A.fon Gaben qadimgi turkiy adabiyot haqida soʻz yuritganda, «Irq bitigi»ning til xususiyatlariga, uslubiga qisqacha toʻxtaladi, ayrim lavhalarni qadimgi turkiy qavmlar udumiga bogʻlaydi. I.V.Stebleva bu asarning sheʼriy tuzilishi haqida ilk bor oʻz fikrlarini oʻrtaga tashladi va diniy oqimlarning, xususan, moniylik va shomonlikning mazkur asarda aks etishi haqidagi gʻoyalarini ilgari surdi²⁵. Oʻzbek olimlaridan N.Rahmonov «Irq bitigi»ning qadimgi turkiy adabiyotdagi oʻrni, uning turkiy xalqlar adabiy, madaniy hayotidagi mavqei, undagi ayrim obrazlarning udumlar va inonch-eʼtiqodlar bilan bogʻliq tomonlari haqida soʻz yuritgan.²⁶ Professor B.Toʻxliyev «Qadimiy hikmatlar» majmuasida mazkur yodgorlikning oʻzbek tiliga tabdilini bergan²⁷. Filologiya fanlari doktori Joppor Eshonqulov «Irq bitigi»ning tush va uning taʼbiri bilan bogʻliq tomonlariga toʻxtalgan. Shuningdek, uning badiiy tushlarda anʼanaviy timsollar qoʻllanishi haqidagi fikrlari diqqatga sazovor.²⁸

«Irq bitigi», qadimgi turkiy adabiyotda nafaqat qogʻozga yozilgani bilan, balki mifologik syujetlarni oʻzida saqlagani, gʻayritabiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda qadimgi turkiy adabiyotdagi Irq bitiklari timsollar tizimi, taʼbir talqini usullari orasida oʻzaro farqli jihatlariga ega. Ana shu farqli jihatlar «Irq bitigi»ning qadimgi turkiy adabiyotda alohida yoʻnalish sifatida shakllanganini koʻrsatadi.

«Irq bitigi»dagi timsollar, albatta, islomgacha boʻlgan diniy oqimlarning, xususan, shomonlikning mahsuli oʻlaroq yuzaga kelganini alohida taʼkidlash darkor. Nemis olimi A.fon Gaben «Irq bitigi» haqida qisqa toʻxtalgan. U mazkur yodgorlik yuzasidan fikr bildirib, adabiy va madaniy yodgorlik sifatida baho bergan va yodgorlikning umumiy mazmuni va mundariyasi haqida fikrlarini bayon

²⁴ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М.–Л., 1951. – С. 80-92.

²⁵ Стеблева И.В. Древнетюркская книга гаданий как произведение поэзии. – История, культура, языки народов Востока. – М., 1970. – С. 165-166; Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. – М.: Восточная литература, 2007. – С. 172-178.

²⁶ Раҳмонов Н. Инсон руҳининг садоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986.

²⁷ Қадимий хикматлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 46-58.

²⁸ Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2010. – Б. 14, 32.

qilgan. Jumladan, u bu asarning 15-boʻlimini izohlab, «har bir oddiy sahnadan soʻng bashorat kelish»ini aytadi²⁹. A. Gaben moniy yozuvidagi «Irq bitigi» haqida toʻxtalar ekan, bu yozma yodgorlikdagi bashorat sheʼriy shaklda berilganini taʼkidlaydi:

birok šöü šölämäk atly irq kälsär, savin inča ayur: šöü söläsäryer tälinür kisi sözläsär sav alqinuryol azsaräv tapmazkiši yangilsariš bütmez öz kántüging bk tutyil ötüg savqa yarima ögüz ärtgäli oyratıng, išing bütmez bäg bolyalı qilünting», yrliying yorımaz ilmiş išing yayılıy sözlämiş savıng tüdüstüg yäk içkäk ägirür yayı yavlaq altayur kün tngri külünti çäriging üzäay tngri badtı qutung üzä öz kántüngkä inanyil kántü köngülüngin bäk tutyilatʻözüng küsäsär snkälän käyik müyüzi tæg atıngküüng kötlürgäy. «Lashkar tortmoq» degani tushda kelsa taʼbiri shunday boʻlar: Jang boʻlsa, yer yoriladi. Odam soʻzlasa, gapi tugaydi. Yoʻldan adashsa, yoʻlini topmas, odam adashsa, ishi bitmas. Oʻz-oʻzingga hokim boʻl. Oʻtinch, iltimosga borma. Daryo kechishni bilmasang ishing bitmas, Bek boʻlmoq chun harakat qilsang, yorligʻing yurmas. Qilgan ishing dushmanlik boʻlsa, aytgan gaping janjalli boʻlsa, shayton, jinlar atrofingni oʻraydi. Yovuz, yomon odamlar seni aldaydi, Kun Tangri askaring uzra botadi, Oy Tangri saodating uzra botadi. Oʻz-oʻzingga ishongil, Koʻnglingni bek tutgil, Vujudingni muhofaza etsang, Bir kun kiyik muguzi kabi, Noming, soning yuksalar.

Mazkur parchaning gʻoyaviy mazmuni haqida Gaben fikr yuritib, butun «Irq bitigi» haqida xulosa chiqaradi va «Bu Fol kitobining gʻoyaviy olami dunyo dinlaridagiday emas, ayni paytda koʻchmanchi chorvadorlarning tafakkur olamiga ham tegishli emas. Bu oʻrinda urugʻ va oila emas, balki fazoviy kuchlar, iblislar va shu bilan birga, hokimiyat va savdogarlar manfaati rol oʻynaydi», degan xulosaga keladi.

Mazkur «Irq bitigi»da uch oʻrinda (1-, 3- va 4-fol taʼbirida) iltimos ifodalanadi: yirkä, tangrikä sevinč tut!.. Yerga, osmonga sevinch bagʻishlagin. Bunda osmondan oldin yerga qurbonlik qilishga ishora bordek.

²⁹ Gaben A. фон. Древнетюркская литература / Зарубежная тюркология. – М.: Наука, 1986. – Б. 156.

«Irq bitigi», ya'ni Fol kitoblari tush ko'rish va uni ta'birlashga asoslangani uchun, dunyo madaniyatida mavjud hodisa. Qadimgi turkiy adabiyotdagi «Irq bitigi» xitoy, yunon, hind va boshqa xalqlarda «Taqdir kitobi» deb ham yuritiladi. Jumladan, «Oltun yorug'»da ham «Taqdir kitobi» haqida so'z ketadi. «Taqdir kitobi»da qancha-qancha jonivorlarni qizining to'yida qurbonlik qilgan Inchyu shahrining begi Ku tayning umri belgilab berilgani haqida ruhlarni xabardor qiladilar³⁰. «Taqdir kitobi» ham aslida xuddi Irq bitiklari kabi insoniyat donishmandligining o'ziga xos manbai. Ammo bu manbalarga tayangan holda har qanday fol yoki tush ta'biridan mutlaq haqiqatni qidirish ham maqsadga muvofiq emas. Mana shuning uchun ham g'ayritabiiylik va g'ayritabiiy timsollar ta'bir asosida yuzaga kelgan syujetlarning tayanch nuqtalaridan hisoblanadi.

A.N.Veselovskiyning quyidagi gapini Irq bitiklaridagi ramziy timsollar va mif munosabatlariga aynan mos keladi: «So'z – bu simvol, gap va jumlarlar – mifdir. Shteyntalning tasavvuri bo'yicha so'z gapdan kelib chiqqan, simvol mifdan kelib chiqqan, xuddi shu singari she'riyat boshqa san'at turlaridan oldin paydo bo'lishi kerak edi»³¹.

Biz bu yerda asosiy e'tiborni VIII-asrda urxun yozuvida bitilgan «Irq bitigi»ga qaratamiz. Bu kitob bo'yicha fol ochish yoki tush ta'biri texnik tomondan qanday amalga oshirilgani noma'lum. Bu kitob «ta'birnomadir», deb fikr bildirgan olimlarning fikrlari o'zini oqlaydi. Ammo shu ta'kidning o'zi ta'birchilar va folbinlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayoni qanchalik ma'lumligini aniqlashtirib bera olmaydi.

«Irq bitigi»dagi ramziy timsollar o'z davridagi tarixiy-qahramonlik dostonlaridagi Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq kabi obrazlardan tamomila farq qiladi. Birinchi navbatda, ramziy timsol bo'lgani bilan, ikkinchidan, bu obrazlarning ong osti-intuitiv mushohadaga asoslangani bilan o'ziga xoslikka ega. Mushohadaga obyekt bo'lgan sirli mazmuni yetkazish usullari, bizningcha, qadimgi turk xoqonligi, so'ngra uyg'ur xoqonligi davridagi diniy-falsafiy,

³⁰ Олтун ёруғ. I китоб. Сўз боши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага таъдил муаллифи: Насимхон Раҳмон. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 26.

³¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М: Изд. Художественная литература, 1940. – С. 395.

ma'naviy jarayonlardan kengroqdir. «Irq bitigi»ning syujet qurilishi va timsollar tizimi aynan mushohada jarayoni bilan bog'liq. Mushohada – moniylik va buddaviylik oqimining asosiy bosqichlaridan biri, shu bois mazkur oqimlarning aqidalari «Irq bitigi» timsollari ramziylik asosidagi g'ayritabiiylikdan iborat ekani, birinchidan, mushohadani, ikkinchidan, g'ayritabiiylikni yuzaga keltirgan. Moniylik oqimining Eron va O'rta Osiyo hududida zardushtiylik, buddaviylik, masihiylik kabi oqimlardan tashkil topgani va bu oqimlarning eng muhim, amaliy jihatdan hayotga yaqin bo'lgan qirralarini o'zida mujassamlantirgani haqida asosiy gaplar aytilgan³². Qolaversa, «Irq bitigi» moniy jamoasi xizmatchilari – «dintar»lar (so'g'dcha termin bo'lib, «tanlangan», «moniy jamoasi a'zosi» degan ma'nolarni bildiradi), shuningdek, jamoaning oddiy a'zolari uchun yaratilgan. Bizni qiziqtirgan masala – bu oqimlardagi, ayniqsa, buddaviylikdagi va moniylikdagi mushohada qilishning «Irq bitigi»da qanday omillar va vositalar asosida shakllanganidir. Ayni paytda Markaziy Osiyo diniy oqimlarining sinkretik xarakteri biridagi aqidalarning mohiyatini boshqasiga olib o'tavergan. Masalan, moniylik jamoasi a'zolarining nizomnomasi bo'lgan «Xuastuanift» bilan «Oltun yorug'»dagi ayrim terminlarning har ikkala manbada umumiyliigi (dintar, no'm (ya'ni, qonun) kabi terminlar), yomon qilmishlar uchun tavbaning shaklan va mazmunan har ikki manbada o'zgarishsiz uchragani fikrimizning dalilidir³³. Bunday masalani qo'yishimizga sabab – mushohada buddaviylik aqidalarini o'zida mujassamlantirgan «Oltun yorug'»da juda aniq ko'rinadi, ammo mushohada ramziy timsollarga emas, balki buddaviylik aqidalariga asoslangan. «Irq bitigi»dagi mushohadaning ramziy timsollar asosidagi g'ayritabiiylikka asoslangani uning o'ziga xos farqli jihatidir.

«Irq bitigi»dagi barcha hikoyatlarda mavjud ramziy timsollarga e'tibor bersak, albatta, voqealar rivojida ham g'ayritabiiylikni yuzaga keltirganini ko'ramiz. «Irq bitigi»ning birinchi hikoyatiga e'tibor beraylik:

³² Рахмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 5-6.

³³ Каранг: Рахманов Н. Следы манихейства в «Алтун яруг» / Материалы международной конференции «Актуальные проблемы современного монголоведения и алтаистики». – Элиста, 2014, – С. 470-472.

Tinsiman, yarin kecha altun orgin uza olurupan mangilayurman. Ancha bilinglar adgu ol – (Men) Tinsiman, yarim kecha oltin taxt ustida o‘tirib, xursand bo‘laman. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.

Tinsi – bu Xitoy podshohining ismi, qadimgi Xitoy mifologiyasidan davom etib, qadimgi turkiy mifologiyaga o‘tib kelgan. Chjou davrida (miloddan oldingi XI-X-asr) qadimgi Xitoyda qandaydir oliy ibtido – Tyan (osmon) kulti shakllangan. Bu kult yer yuzida yuz berayotgan hamma narsaga rahnamolik qiladi. Ammo ...Tyan juda abstrakt timsol bo‘lib, konkret mifik personajlarning namunalari bilan aralashib ketgan³⁴. Ana shu abstraktlikni aynan qadimgi turkiy yodgorliklarda ko‘ramiz.

Abstraktlik – g‘ayritabiiy timsollarning bitta belgisi, shuning uchun ham bu timsol mifologik mazmun kasb etgan va abstrakt holatda qadimgi turkiy adabiyotga o‘tgan. Tinsi timsoli To‘nyuquq yodgorligida ham bor. Ammo Tinsi timsoli bu yodgorlikda Bangligak tog‘ida istiqomat qiladigan xoqonning timsoli bo‘lib kelgan, ya’ni hamma xoqonlar Tinsi o‘g‘li unvoni bilan yuritilgan: Biz yama suladimiz, ani irtimiz. Jinchu oguzug kacha Tinsi ogli yatigma Bangligak tagig (To‘n. 44) – Biz yana jang qildik, ularni quvdik. Yinchu daryosini kechib, Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘ini...

Yinchu daryosi – hozirgi Sirdaryodir. Mazkur yodgorlikdan ma’lum bo‘lishicha, Tinsi o‘g‘li yotadigan Bangligak tog‘i hozirgi O‘zbekiston hududida bo‘lgan edi.

Tinsi o‘g‘li g‘ayritabiiy timsolga mansub ekan, buning sababi faqat abstraktligi emas, balki badiiy va mifologik tafakkur asosida qadimgi turkiy adabiyotda ramziy timsolga aylanganidir.

«Irq bitigi» qadimgi turkiy miflarni ham o‘zida saqlagan asar sifatida muhimdir. Qadimgi turkiy miflarning boshqa xalqlar mifologiyasi bilan o‘xshash bo‘lgan asosiy xususiyati – mifning g‘ayritabiiy timsollarga tayanganidir.

³⁴ Китайская мифология / Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 1. – М.: Советская энциклопедия, 1991. – С. 656.

Aksariyat xalqlarda olamning paydo bo'lishi haqidagi mif yoki mifning afsonaga aylangan ko'rinishi bor. Bu miflar ma'lum bir xalqning koinot haqidagi tasavvur-tushunchalarini, atrof-olam haqidagi qarashlarini, olamni o'ziga xos ilmiy bilishga bo'lgan tushunchalarini ifoda etadi. Biz boshqa xalqlar mifologiyasidagi olamning paydo bo'lishi haqida mavjud miflarga to'xtalib tahlil qilishni ortiqcha deb bilamiz va bevosita «Irq bitigi»dagi shu mazmundagi mifga diqqat qaratamiz:

Uza tuman turdi, asra toz turdi, qush ughu ucha azti, kiyik oghli yuguru azti, kishi oghli joriju azti, jana tangri qutinga uchunch jilta qop asan tukul korushmish, qop ogirar sabinur tir. Ancha bilinglar: adgu ol (XV) – Yuqorida tuman paydo bo'ldi, pastda chang ko'tarildi, qush bolasi uchib (yo'lidan) adashdi, kiyik bolasi yurib (yo'lidan) adashdi, yana Tangri sharofati bilan uchinchi yilda butunlay eson-omon ko'rishdi, rosa xursand bo'lar, sevinar, der. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.

Olamning paydo bo'lishi haqidagi mazkur mifning boshqa shu tizimdagi miflardan farq qiladigan jihati shuki, tuman, chang, odam bolasi kabi timsollar o'ziga xoslik kasb etadi. Bular shunchaki detal yoki hodisa sifatida mavjud, ammo olamning yaratilishida ramziy timsol sifatida faoliyat ko'rsatishi g'ayritabiiylikdan iborat.

Yoki quyidagi mif qadimgi turkiylarning paydo bo'lishi haqidadir degan fikrni paydo qiladi: Baj ar qony urkupan barmish, borika soqishmish, bori aghzi amsimish, asan tukul bolmish, tir. Ancha bilinglar: adgu ol! – Boy odamning qo'yi hurkib, qochib ketgan, (u) bo'riga duch kelgan, bo'ri emishni xohlagan, (bo'ri) sog'-salomat qolgan, deydilar. Shunday bilinglar: yaxshidir bu!

Parchadagi bo'ri timsoli qadimgi xitoy yilnomalarida saqlanib, afsonada mavjud bo'lgan bo'rining aynan o'zidir. Afsonaga ko'ra, qadimgi turkiylarni jujanlar qirib tashlaydi. Ularning orasidan o'n yoshli bolani jujanlar o'ldirmasdan, uning oyoq-qo'llarini kesib, tashlab ketadilar. Oyoq-qo'llari kesilgan bu bolani bir ona bo'ri orqasiga ko'tarib, toqqa olib chiqib ketadi. Bola ulg'ayib, o'sha ona bo'riga uylanadi va undan o'nta farzand ko'radi. Ammo jujanlar baribir bolaning

tirik qolganini bilib qolib, o'ldiradilar³⁵. (Bu – Gerodot keltirgan skiflarning paydo bo'lishi haqidagi afsona bilan hamohanglik kasb etadi: Gerodot keltirgan afsonada Gerakl yarmi ilon, yarmi ayol shaklidagi jonzotga uylanib, uchta farzand ko'radi. Bo'ridan tug'ilgan eng kichik o'g'il Ashin turkiy qavmlar orasida eng nufuzli urug' bo'lganiday, Gerodot bilan yarmi ilon, yarmi ayoldan tug'ilgan Skif ham akalariga qaraganda, chaqqon va uddaburon chiqadi.) Shuning uchun qadimgi turkiylar tarixda «bo'ri avlodlari» deb nom oladi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda, turkiy ertaklarda, afsonalarda, dostonlarda (masalan, «O'g'uznoma»da) bo'ringa yuqorida aytilgan afsonadagi arxaik, mifologik ma'nosi saqlangan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Dostonlarda eng ko'p qo'lanadigan badiiy san'at turi bu?
2. Rashididdinning qaysi asarlarida folklordan foydalanilgan?
3. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qaysi asarida folklarga murojaat qilgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар. Масъул муҳаррир. – Т.: Sharq, 2016.
2. Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
3. Ўзбек халқ оғзаки ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. I-VIII-жилдлар. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2016.
4. N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
5. N. Rahmonov. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. T.: “MUMTOZ SO'Z” nashriyoti, 2016.

³⁵ Каранг: Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.–Л. Изд. Академии Наук СССР, 1950. – С. 221-222; Гумилев Л.Н. Древние тюрки, – М.: Наука, 1967, – С. 22; Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993, – Б. 42-43.

3-AMALIY MASHG‘ULOT.

FOLKLORIZMNING BADIY ASAR RIVOJIDAGI ROLI. BADIY ASARDAGI FOLKLORIZMLARNI OG‘ZAKI NUTQ VOSITALARIDAN FARQI

REJA:

1. *Ijodkorlarning folklor estetikasiga ongli ravishda murojaat etishi*
2. *Larra haqidagi afsona*
3. *Danko haqidagi afsona*

Tayanch tushuncha: folklorizmlar, Tarixiy roman, tetralogiya, yuaxt, illyuziya, Gorkiyning termini, peyzaj.

Qadimgi turkiy adabiyot, o‘zbek adabiyoti tarixi folklor zaminida shakllanganidek, zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham folklordan oziqlanganini e’tirof etish kerak. Bu jarayonni 20-asrning ilk davridan boshlab kuzatish mumkin. Hamzaning dramalarida, ayniqsa, buni kuzatish mumkin.

Hozirgi adabiy jarayon termini ostida biz XX-asr adabiyotini nazarda tuamiz. Hozirgi adabiy jarayonda, ya’ni XX-asr adabiyotida qadimgi turkiy adabiyotda farq qiladigan jihat shuki, qadimgi turkiy adabiyotda folklor va yozma adabiyot bir sistemani hosil qiladi. Aytaylik janrlar har ikkala sistema uchun bir. Masalan, yig‘i janri yoki qo‘shiq janri ham folklorniki, ham yozma adabiyotniki, XX-asr adabiyotida esa folklor va yozma adabiyot ikkita mustaqil estetik sistemani hosil qilgan: Folklor sistemasi va adabiyot sistemasi.

Ijodkorlarning folklor estetikasiga ongli ravishda murojaat etishlari *folklorizmlar* deb atalishi adabiyotshunoslikda qabul qilingan. Folklorizm tiplari turlicha bo‘ladi: Bu turlar ijodkorning ijodiy usuliga, metodi va yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek ijodkorning individual uslubi, bayon qilish texnikasiga, poetik tiliga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida jummlalarning ritmik tuzilishi va ritmni keltirib chiqaruvchi vositalar – leksik takrorlar, qo‘shimchalar takrori (misol) bo‘la oladi.

Yoki O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasining uchinchi kitobi "Mironshoh Mirzo" romaniga e'tibor beraylik.

Tarixiy romanni hamma ham hazm qilavermaydi. Ma'lum tayyorgarligi bor, millat taqdiriga, tarixga befarq bo'lmagan kitobxonda qiziqish uyg'otishi tabiiy. Lekin har qanday tarixiy romandan ham kitobxon keskin vaziyatni, ma'lum sentimentallikni kutadi. Muhammad Ali ana shunday holatni yaratishning yo'lini topgan – xalq dostonlarining bayon usulini tanlagan. Muhammad Sulton bilan Sog'inch bika o'rtasidagi romantik tuyg'ular buning bir dalilidir. Sog'inch bika, o'zbek qizlari kabi, sirini onasiga ochadi. Bu tabiiy. Romanni o'qishda davom etar ekanmiz, Sog'inch bika Muhammad Sultonni anchadan buyon ko'rmagani uchun yuragi dardga to'la. Sog'inch bika oxirgi choraga qaror qiladi – "shahzodani ko'rish mumkinday, darhol Bog'ko'chaga otildi" (118-bet). Shu yerda kitobxon bir zum to'xtab qoladi: yo'g'-e, qiz bola bunday qilishi mumkin emas, deb bir nafas to'xtab qoladi. Buning ustiga, shahzodani ko'rishdan benasib bo'lgan "qizning hayajoni ko'pchib, qandaydir o'kinch hissi tovilmadi" (118-bet). Yana ajablanamiz: "Yo'g'-e, qiz bola o'zini shunchalik ham yerga uradimi?!" Ammo romanni o'qishda davom etsak, Muhammad Alining tarjimonlikda orttirgan tajribasi, bilimi, olim sifatidagi iqtidori ana shu lavhalarda o'zini ko'rsatadi, bu nihoyatda o'rinli o'ylab topilgan usul ekanini anglab yetamiz. Bu lavhalarga ishonamiz. Muhammad Ali xalq og'zaki ijodidagi, xususan, o'zbek ertak va dostonlarining bayon usulini romanga olib kirgan. Jumladan, O'rta Osiyoning qadimiy qissalaridan "Zaridar va Odatida" ga murojaat etamiz. Sog'inch bikaning harakatlari Odatidaning sevgi bobidagi jasoratini eslatadi. Zariadr bilan Odatida hali bir birlarini ko'rmasdan, tushida bir-biriga oshiq bo'lib qolgan. Ikki sevishganlar bir-birlariga yetishuvlari uchun Zariadr qanchalik jasorat ko'rsatsa, Odatida ham Zariadrga yetishish uchun qahramonlarcha harakat qiladi. Yoki mumtoz adabiyotdagi ko'plab dostonlarda bu o'lmas mavzu bor, kitobxonlarni hamon o'ziga jalb qilib kelyapti. Sog'inch bika Muhammad Sultonga bo'lgan muhabbati tufayli jangchi yigit kiyimida uning "jamolidan nasibador bo'lish umidida" Tabrizga – yo'l oladi. Muhammad Sultonga o'zini tanitmay, uni

dushman o'qidan saqlab qoladi. Har ikkalasi, xuddi ertak qahramonlari va “Zariadr va Odatida” qissasidagi singari, “murod – maqsadlariga yetadilar”. Tanlangan xalqona usul Muhammad Sulton va Sog'inch bika obrazlarining esda qolarli va tabiiy chiqishiga sabab bo'lgan, kitobxonni albatta befarq qoldirmaydi.

Yuqorida aytganimizday folklorizmlarning bunday ko'rinishlari (qanday turiga kiradi?) ijodkorning ongli r'vishda folklorga murojaat etishidan kelib chiqadi. Muhammad Ali folklorning biron janrini asos qilib olmagan, balki ayrim o'rinlarla ertak va dostonlarning ayrim parchalarida, syujetlarida mavjud bo'lgan syujetlarni olib kirgan. Hamid Olimjonning Semurg' va Parizod va Bunyod", "Oyguil bilan Baxtiyor" adabiy ertaklaridagi singari alohida maqsad bilan ertak janrini tanlagan. Har ikkala adabiy ertakning motiv va syujetlari xalq og'zaki ijodidagi ertaklarga tayanadi. Rivojlangan adabiy jarayonda katta ijodkorlar o'z ijodida bu usulga murojaat etadilar. Masalan, Maksim Gorkiy ijodining ilk davrlarida ayni shu usulga murojaat etdi. Uning "Izergil kampir" hikoyasi (Gorkiyning termini) peyzaj tasviri bilan boshlanadi, Bu tasvir kitobxonni Bessaraibitya muhitiga olib kiradi Muallifning e'tibori asta-sekin yosh yigit va qizlar guruhiga ko'sadi. Hikoyachi ular ortidan kuzatadi. Muallif yosh yigitlarning tashqi go'zalligini sezadi. Bu go'zallik ularning qalbini to'ldirib turgan eorkinlikni ifodalab turar edi. Muallif Izergil kampirning yonida qoladi Kampir hayron bo'ladi: nimaga suhbatdoshi quvnoq-xushchaqchaq uruh bilanbirga ketmadi? Asta sekin hikoyachi bilan kampir o'rtasida suhbat boshlanadi.

Kampir yigitga begona o'lkadagi mahallif afsonalar hikoya qilib beradi, o'z hayoti haqida eslaydi. Birinchi afsona Larre soya haqida bo'lib, u Bessarabiya cho'llari bo'ylab daydib yuradi. Qachonlardir u ham yosh yigitcha – burgut va ayolning o'g'li bo'lgan edi. Yigit otasi vafotidan keyin onasi bilan birga tog'dan tushadi. Yigit o'zini odamlardan yuqori deb bilardi, shuning uchun bir qizni o'ldirishga jur'at etdi. Shuning uchun uni quvg'in qildilar. Dastlab Larre yolg'izlikdan lazzatlandi, hech tap tortmay qizlarni va chorvani o'g'irlab ketaverdi. Ammo yolg'izlikdan u bezor bo'ldi. Larra o'zini o'zi o'ldiromqchi bo'ldi, ammo o'lim uni azoblardan xalos qila olmoqchi emas edi. Yigit ming yil davomida

cho'lda sarson bo'lib yurdi, uning tanasi va suyaklari quridi, faqat soyasi qoldi, xolos.

Birinchi qismda inson va jamiyat muammosi ochib beriladi. M.Gorkiyning aytishicha, inson sevgisiz, boshqa odamlarning qo'llab quvvatlashisiz yashay olmaydi. Yolg'iz yashash – yuaxt illyuziyasidir. Illyuziya tezda yo'qolib ketadi.

Ikkinchi qismda kampir o'z hayoti va erkaklar bilan munosabati haqida hikoya qilib beradi. Qahramonning fikricha, hayotning mazmuni sevgida. Izergilning ko'plab muxlislari bo'lgan edi. U o'ylab o'tirmasdan nozik hissiyotlarga berila olardi. Kampir yoshligida o'zi sevgan odamlar uchun o'zini qurbon qilardi. Undan odamlar shafqatsiz ravishda foydalandilar, ammo uning qalbi nur sochishda davom etaverdi. Izergilning hikoyasi kitobxonni shunday xulosa chiqarishga undaydi: inson o'zini tosh qobiqqa o'rab olishiga yo'l qo'ymasligi kerak, hatto uni bir necha marta sindirganbo'lsaham. Hikoyaning Uchinchi qismi- Danko haqidagi afsonadir. Bu yigit boshqa insonlar uchun yuragini berdi, ya'ni qurbon qildi. Bu afsonada avtor inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat mavzusini davom ettiradi. Faqat Danko Larraning tamomila ziddi. Danko tom ma'nodagi romantik qahramon. U jamiyatdanuzoqlashib, begonalashib ketgan., ayni paytda uning qalbi oliyjanoblik bilan to'la. Izergil kampir bu yigitni hikoyachining tengdoshlarining zaif ruhiga namun qilib ko'rsatadi. Asarning nomida qadimgi skandinaviya xalqlarining mifologiyasi va olamning qurilishi haqidagi tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Izergil ismi da ayollar ismining ramziy ma'nosini hisobga olish kerak. Ko'pchilik tadqiqotchilar "Izergil" ismini qadimgi skandinavcha «iggdrasil», ya'ni shumtol daraxti ma'nosini anglatadi, deb qaraydilar. Skandinaviya xalqlari tasavvuricha, bu daraxt olamning asosidir. Bu daraxt uchta shohlikni – o'liklar, xudolar va insonlar shohligini bog'lab turadi, deb biladilar. Hikoya qahramoni ham o'liklar va tiriklar o'rtasida vositachini eslatadi. U hayotning o'zi in'om etgan donolikni saqlab boshqalarga yetkazipti.

Larra haqidagi afsona.

Bu afsonadan kelib chiqadigan xulosa shuki Larra burgut va ayolning o'g'li bo'lgani uchun – qadimgi turklarning Ashin urug'i bo'ri va erkakdan paydo bo'lgani haqidagi mifni eslaylik – u tashqi tomondangiga insonga o'xshaydi. Bu jihatdan u o'lim urug'ini sochuvchidir, o'zini hayotga qarama qarshi qo'yadi. U instinkt bo'yicha harakat qiladi. Qanday bo'lmasin, maqsadga erishishg intiladi. O'tmishdan va kelajagidan mahrum bo'lgan bir mavjudot. Bular Larrada ilgari bo'lgan mag'rurlik va go'zallikni qadrsizlantiradi. Unda ruh yo'q, u faqat o'zini komil deb biladi va o'ziga noma'qul bo'lgan narsarani mahv qiladi. Larra inson taqdiridan mahrum bo'ladi, u o'lmaydi, balki hayotda mavjudlikdan bas qiladi. Xudkushlikka urinish muvaffaqiyatsiz: yer uning zarbalaridan chekinadi. Undan qolgan narsa soya va “rad qilingan” degan ism.Larraning taqdiri inson hukmini belgilab berdi. Gorkiyning aytmoqchi bo'lgan gap shuki, yolg'izlik va insoniyatdan chetlashish eng dahshatli jazo deb biladi.

Danko haqidagi afsona.

Asrlar davomida bir qabilaning odamlari yashagan edilar. Keyin boshqa bir qabila kelib, odamning o'rmonga quvib yubordilar. Qabila ortga- cho'lga qaytib bora olmadi, oldinda esa botqoqlik bor edi. Birdan odamlar o'rtasida Danko paydo bo'ldi. U odamlarni o'rmon orqali boshqa cho'lga olib bormoqchi bo'ldi. Yo'lda odamlar g'azablandilar. Dankoni o'ldirmoqchi bo'ldilar (Shiroq rivoyatini eslaylik). Ammo u ko'krigidan yonib turgan yuragini sug'urib oldi va insonlarni boshqa cho'lga olib bordi. Shundan keyin o'ldi.Uning o'lganini hech kim sezmay qoldi. Faqat bir odam bilib qoldi, u nimagadir qo'rqib, hali ham alanglanib turgan Dankoning yuragini bosib oldi. Alangalanib turgan yurak o'chdi, ammo o'zidan keyin uchqunlar qoldirdi, uchqunlar cho'lda miltillab qoldi. Gorkiy bu hikoyasiga ertak janrini ataylab tanladi. Izergil kampirning hikoya qilgan afsonalarida mifologiyaning qorishiqligi va mifologik detallarning maqsadi Gorkiyning maqsadini yuzaga chiqargan. Inson (ayol) va jonzotdan (burgut) tug'ilgan o'g'il Larraning ruhiyatida yirtqichlarga xos qirralar mavjud: Larra qizlarni va chorvani

o'g'irlyaydi. Dankoda ham ertak qahramonlorining ijobiy qirralari bor. U insoniyatni zulmat (o'rmon)dan yorug'lik (cho'l)ga olib chqadi. Lev Tolstoyning "Hojimurod" asarida ham folklor janrlari dominantini ko'rish mumkin. Ayniqsa bu asardagi folklorizm chechen, ingush va avar xalq qo'shiqlarida namoyon bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Garsia Lorka bir shoirga maslahati qanday bo'lgan edi?
2. Paydo qiluvchi folklorizmlar va abstraktlik haqida so'zlang.
3. Kitobiy dostonlarning o'ziga xosligini ayting.
4. Kitobiy dostonlarning yaratilish shartlari haqida bilganlaringizni ayting.
5. Kitobiy va an'anaviy dostonlar munosabatining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Rahmonov. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. T.: "MUMTOZ SO'Z" nashriyoti, 2016.
2. Далгат У. Литература и фольклор. Москва: Наука, 1981. – 368 с
3. Alaviya M. Qizil olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent. Adabiyot va san'at, 1972. - 232 b.
4. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent: Fan, 1974. - 222 b.
5. Amilova M. O'zbek sovet adabiyotidagi folklor an'analari. Toshkent: Fan, 1990. - 124 b.
6. Karimov N. Hamid Olimjon she'riyatidagi folklor an'analari / O'zbek sovet adabiyoti masalalari. Toshkent: Muxlis, 1959 yil.

V. KEYSLAR BANKI




KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.

- 1-keys.** Rashididdinning qaysi asarlarida folklordan foydalanilgan?
- 2-keys.** Dostonlarda eng koʻp qoʻlanadigan badiiy sanʼat turi bu?
- 3-keys.** Muhammad Ali “Ulugʻ saltanat” da folklorda qay yoʻsinda foydalangan?
- 4-keys.** Garsia Lorca bir shoirga qanday maslahat bergan edi?
- 5-keys.** «Irq bitigi» haqida maʼlumot bering.
- 6-keys.** Maishiy folklorizm namunalariga misol keltiring.
- 7-keys.** Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari, Yakub Kolasning «Yangi yer» dostoni kabi qator asarlarni kiritish mumkin.

VI. GLOSSARIY



VI. GLOSSARIY

Filologiya	grekcha soʻz boʻlib, philo - sevaman, logos - soʻz, bilim demakdir.	is a Greek word, philo - I love, logos - a word, knowledge.
Obraz	soʻzning oʻzagi "raz" (chiziq) boʻlib, undan "razit"(chizmoq, yoʻnmoq, oʻymoq), undan "obrazit"(chizib, oʻyib, yoʻnib shakl yasamoq) paydo boʻlgan. Ana shu "obrazit" soʻzidan "obraz" atamasi vujudga kelgan. Bu soʻz "umuman olingan tasvir" maʼnosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni oʻzida gavdalantirgan hodisadir	The root of the word is "raz" (line), from which "razit" (draw, carve, carve), from which "obrazit" (draw, carve, shape) which was. It is from this word "obrazit" that the term "image" is derived. The word means "image in general." An image is an event that embodies both a generalized and an individualized feature
Badiiylik	Hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini taʼsirlantiradigan, unda tasavvur uygʻotadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha sanʼat turlariga xos hodisa.	Describe events in vivid, vivid scenes that are moving and imaginative. Art is a phenomenon of all kinds of art.
Badiiy toʻqima	obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni oʻylab topishdir	is to invent events that reflect the inner and outer appearance, purpose, and aspirations of the image
Realistik obrazlar	xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagi kishilarga	character traits, behaviors that are appropriate to people in

	mos keladigan obrazlar	life
Romantik obrazlar	ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi	is the image of people who express the dreams of the creators. They reflect the dreams of the artists, their intentions about society and people
Xayoliy-fantastik obrazlar	romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin	looks like a romantic image. These images reflect the ideal attitude of the creators to life, their worldview. Fantasy characters are portrayed as having miraculous, divine qualities. The heroes of folk epics and fairy tales can be called fantastic characters
Majoziy obrazlar	Muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so'fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi	They are symbolic images that generalize the image of a particular object-event. In Sufi literature, for example, God is mentioned. The flower, the tulip is a symbol of love, an expression of love
Allegorik obrazlar	majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda	is considered one of the figurative images. Allegorical images are often found in

	bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko'rsatiladi	parables and fairy tales. For example, the main characters of fairy tales are animals. They show flaws in the behavior of some people
Xarakter	o'z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo'la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo'lsa, o'zining barcha jihatlari bilan yorqin ko'rinib tursagina u badiiy xarakter bo'la oladi	is a complete image that is distinguished by its actions, goals, aspirations, thoughts, worldviews, and behaviors. Therefore, any image cannot be artistic. The protagonist of a work can be an artistic character only if he is active in all respects and shines in all his aspects.
Personaj	badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko'tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.	all the characters in a work of art, including those who have not risen to the level of artistic character, are character.
Shakl va mazmun	voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.	embodying the inner essence of events by reflecting their appearanc.
Mavzu	ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy	the life events chosen by the creator, a generalization of the

	muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.	main problems he covers. The idea and purpose on which a literary work is based is its subject.
G'oya	ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa	it is the phenomenon that governs the artist's purpose and determines his or her views and approach to the event
Konflikt	lotincha conflictus degan so'z bo'lib, "to'qnashish" degan ma'noni bildiradi. Ziddiyat, to'qnashuv hayot taraqqiyotini ta'minlovchi asos bo'lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo'lishining yetakchi vositasidir	the Latin word conflictus means "collision." Just as conflict is the basis of life, artistic conflict is the leading means of making a work interesting.
Kompozisiya	lotincha compositio so'z bo'lib, "tuzilish, qurilish, tarkib" demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha ta'rif-tavsif berish keng tarqalgan: "badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma'lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi".	The Latin word compositio means "structure, construction, content." It is common to describe the composition of a work of art as follows: "the placement of parts, details, means of artistic expression in a certain order in accordance with a specific purpose."
Sujet	fransuzcha sujet so'z bo'lib, "narsa, mazmun, mavzu" degan	a French subject is a word that means "thing, content,

	<p>ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.</p>	<p>subject." The system of communication between the protagonists, which forms the content of the work.</p>
<p>Fabula</p>	<p>lotincha fabula so'z bo'lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutiladi. "Fabula — asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ham deyiladi. O'z ma'no va mohiyatiga ko'ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda syujet termini faol qo'llaniladi. Fabula termini esa asta-sekin iste'moldan tushib qolmoqda".</p>	<p>The Latin word fabula means, for example, to tell a story. A fable is a living material that forms the basis of a work of art. It is also called a "fable" - a coherent sequence of events in a work that is logically connected. These two terms are synonymous in meaning and essence, and the term plot is actively used in modern literature. The fabulaterminiesasta is slowly declining. "</p>
<p>Ekspozisiya</p>	<p>lotincha expositio so'z bo'lib, "tushuntirish" degan ma'noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o'sgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozisiya deb yuritiladi. Ekspozisiyaasarningistalgano'r</p>	<p>The Latin word is expositio, meaning "to explain." An exposition is a description of the place where the events took place, the social landscape of the period, and the environment in which the heroes grew up. The exposition can be anywhere.</p>

	nidabo'lishimumkin.	
Tugun	badiiy asarda qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lishi. Tugun, ko'pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo'ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o'rtasida emas, qahramonning aynan o'zining o'y-kechinmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin	the emergence of contradictions between the protagonists in a work of art. The knot is often caused by the heroes meeting for the first time or arguing over a serious issue. The plot can be connected not only between the protagonists, but also with the protagonist's own thoughts.
Voqea rivoji	syujetdagi voqealarning ma'lum tugundan so'nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to'satdan yuzaga kelganday bo'lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.	the process of development after a certain node of events in the plot. The knot may appear suddenly. But the course of events is a long process.
Perepetiya	Syujet voqealari rivoji davomida paydo bo'lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar	New nodes or confusions that appear during the course of events
Voqealar kulminasiyasi	Asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizod. Yechim - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo'lishini gavdalantiruvchi	An episode that rises to the top of the plot and shows the character of the main characters. The Solution is an episode in which the plot unfolds and the fate of the protagonists is decided

	epizod	
Muqaddima	Muallif o'quvchiga o'z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi	The author informs the reader of his intentions, explains and comments on the work
Xotima	Qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi	The part of the story that tells the story of the heroes after their events
Portret	fransuzcha portrait so'z bo'lib, "tasvir" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo'ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o'ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo'lgan qahramon qiyofa, ko'rinishini albatta gavidalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko'rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o'zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo'ladi.	is a French word for portrait, meaning "image." In art, portraiture is one of the most important factors in creating the image of a hero. Because the writer is the protagonist who is involved in the events, who thinks, who has some purpose, who is the personification. The portrait of the protagonist is not only a means of showing his image, but also a means of understanding the situation in the spiritual world, the changes.
Detal	detallar asosida hosil bo'ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko'rsatishda	based on details. Comments on the appearance of the characters, who pay creative

	<p>ham ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko'inishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xarakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo'ladi.</p>	<p>attention not only to the portrait of the protagonist, but also to his character, allow us to get a clear idea not only of their appearance, but also their inner state. This is of particular importance. Just as the detail illuminates the character of the protagonist, so it is the basis for a clear representation of the landscape.</p>
<p>Lirik chekinish</p>	<p>Ijodkorning syujet voqealarini to'xtatib, ular tufayli o'zida paydo bo'lgan ichki kechinmalarni bayon etishi</p>	<p>The creator stops the plot and tells about his inner experiences.</p>
<p>Peyzaj</p>	<p>fransuzcha paysage so'z bo'lib, "mamlakat", "joy" degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko'inishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatinigavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi</p>	<p>works that convey the same theme, the fate of the same heroes. The planetary plot is an event that exists in the history of all national literatures</p>
<p>Sayyor syujet</p>	<p>bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet</p>	<p>works that convey the same theme, the fate of the same heroes. The planetary plot is</p>

	barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa	an event that exists in the history of all national literatures
Badiiy asar tili	Adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umum xalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emosionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.	A language based on the norms of literary language, based on the common vernacular, containing expressions that are understandable to all, polished by the creators. The language of a work of art differs from the language of scientific works in such features as imagery, emotionality, imagery, aphorisms.
Dialog	yunoncha dialogos so'z bo'lib, "ikki kishi o'rtasidagi so'zlashuv" degan ma'noni anglatadi	is a Greek word for dialogue, meaning "a conversation between two people."
Monolog	ham yunoncha (monos — bir va logos — so'z, nutq) so'z bo'lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi	is also a Greek word (monos - one and logos - word, speech), which is the speech of the characters in a work of art directed at themselves or others.
Jargon	fransuzcha jargon so'z bo'lib, "buzilgan til" degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U	a French slang word meaning "broken language." Therefore, slang is an artificial language. It only applies to certain

	muayyan guruh kishilari doirasidagina qo'llanadi. Jargon so'zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so'z, iboralardan tarkib topgan bo'ladi.	groups of people. Jargon words are also words and phrases that are used in everyone's speech.
O'xshatish	narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O'xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.	is to compare a particular feature of an object with another object. The analogy allows the idea to be expressed more clearly.
Mubolag'a	narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag'a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llanadi	the feature of things is to describe them in a way that amplifies and aggravates the signs. An expression is used to distinguish certain things from others
Metafora	yunoncha metaphora so'z bo'lib, "ko'chirish" degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi. Biroq metafora aynan o'xshatish emas.	The Greek word metaphora means "to move." It is based on the similarity between things. But the metaphors are not the same.
Metonimiya	ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim.	a unique migration based on the closeness between two concepts. Metonymy is the

	Metonimiya yunoncha metonomadzo soʻz boʻlib, “qayta nomlash”dir	Greek word metonomadzo, meaning "renaming."
Sinekdoxa	yunoncha synekdoche soʻz boʻlib, unda bir qism yoki boʻlak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Yaʼni, bir butun hodisa orqali uning ayrim boʻlagi haqida mulohaza yuritiladi	is a Greek word synekdoche, in which the whole is expressed as a whole through a part or a piece, and vice versa. That is, a whole event is considered as a part of it
Allegoriya(majoz)	yunoncha allos — boshqa, oʻzga va agoreuo — gapiraman, demakdir. U ertak va masallarda, ayniqsa, keng qoʻllanadi. Masalan, tulki qiyofasida ayyor kishilar nazarda tutiladi. Chumoli mehnatkash, zahmatkash odamlar timsoli sanaladi. Allegoriya fikrni pardalab, sal yashirib ifoda qilishning eng oʻngʻay shakli hisoblanadi	Greek allos - other, other, and agoreuo - I mean. It is especially used in fairy tales and parables. For example, the image of a fox refers to cunning people. The ant is a symbol of hardworking, industrious people. Allegory is the simplest form of expressing an idea
Jonlantirish	kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga koʻchirishdir. Masalan, <i>xoʻmraygan bulutlar</i> deyiladi. Bunda kishilarga xos xoʻmrayish jonsiz bulutga koʻchirilgan boʻladi. Asarlarda	is the transfer of human characteristics to inanimate and abstract things. For example, it's called clouds. In this case, the human gesture is transferred to a lifeless cloud. The rocks, the wind, the trees,

	<p>tog‘-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi</p>	<p>the fruits are all spoken of as human beings</p>
Sifatlash	<p>narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa-hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi</p>	<p>is to clearly distinguish a feature of a thing or event. There are two types of qualifications. The first is a simple adjective that emphasizes the transient nature of things. The second is constant qualification, which is the constant characterization of events</p>
Intonasiya	<p>lotincha intonare so‘z bo‘lib, “qattiq talaffuz etish” degan ma’noni bildiradi. U so‘zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonasiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.</p>	<p>is a Latin word intonare, meaning "to pronounce hard." It is a means of expression that expresses the attitude of the speaker, the author of the work. In the work of art, the intonation is expressed by various punctuation marks, the way the verses are arranged.</p>
Parallelizm	<p>Ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish orqali mazmunni yorqinlashtirish uslub isanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri</p>	<p>It's a way of highlighting content by putting two or more events side by side. In it, things are compared or</p>

	bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta’sirchanligi kuchaytiriladi	contrasted with each other. In this way, the idea is clarified and its effectiveness is enhanced
Takror	parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko‘rinib turadi. Chunki takror ayrim so‘z, iboralarning ma’lum bir tartib asosida qayta-qayta qo‘llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko‘rinishlari bor	is an image method close to parallelism. It is clearly visible in the text. Because repetition is the repetition of certain words or phrases in a certain order. Repeat is used for a specific purpose. Repetition has the form of anaphora, epiphora, repetition of verses
Anafora	yunoncha anaphor so‘z bo‘lib, “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma’noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she’r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.	is the Greek word anaphor, meaning "to ascend." In this case, the same word or phrase is repeated in the same way at the beginning of the poem.
Inversiya	lotincha inversi so‘z bo‘lib, “o‘rin almashtirish” degan ma’noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me’yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta’kidlanmoqchi bo‘lgan fikrga mantiqiy urg‘u berish, uni kuchaytirish, ta’sirchanligini	The Latin word inversion means "displacement." In this case, the parts of speech are used differently from the grammatical rules. Inversion is used to logically emphasize, reinforce, and enhance the point being made.

	o'shinish maqsadida qo'llanadi.	
Antiteza	fikr ta'sirchanligini o'shinish maqsadida qo'llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi	is one of the expressions used to increase the effectiveness of thought. It is used to express conflicting opinions
Ritorik murojaat	Tan-tanavorlik, ko'tarinkilik yoki kesatish, kuchli g'azab, nafratni ifodalash uchun qo'llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir	It is a form of expression used to express arrogance, arrogance, or cutting, strong anger, or hatred.
Sillabik she'r tizimi	bo'g'inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'rtizimiga mansubdir	based on the number of joints. The poetry of the Turkic peoples, including the Uzbek people, as well as the poetry of the Italian, Polish, French, Spanish, and Romanian peoples, belongs to the syllabic poetry.
Metrik she'r tizimi	bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyatishunday xususiyatga ega	based on the length of the joints and the position of the vowels. Greek, Latin, and Arabic poetry have similar characteristics
Sillabotonik she'r tizimi	urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyatishundaydir	based on the order of the accented, unaccented syllables. It's like Russian poetry
Tonik she'r tizimi	misralarda urg'usiz bo'g'in	No matter how many

	qancha bo‘lishidan qat’i nazar, ritm hosil bo‘lishi, urg‘ularning bir maromda kelishiga asoslanadi	unstressed syllables there are in the verses, the rhythm is based on the rhythm of the accents.
--	--	---

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улўғ халқнинг иши ҳам улўғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 40-сонли Қарори.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар. Масъул муҳаррир. – Т.: Sharq, 2016.
2. Турдимов Ш. Ҳикмат хазинаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.

3. Ўзбек халқ оғзаки ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. I-VIII жилдлар. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2016.
4. N. Rahmonov. О‘zbek adabiyoti tarixi. Т.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017
5. N. Rahmonov. О‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Т.: “MUMTOZ SO‘Z” nashriyoti, 2016.
6. Далгат У. Литература и фольклор. Москва: Наука, 1981. – 368 с
7. Alaviya M. Qizil olma, qizil olma. О‘zbek xalq qo‘shiq-lari. Toshkent. Adabiyot va san'at, 1972. - 232 b.
8. Alaviya M. О‘zbek xalq qo‘shiq-lari. Toshkent: Fan, 1974. - 222 b.
9. Amilova M. О‘zbek sovet adabiyotidagi folklor an'analari. Toshkent: Fan, 1990. - 124 b.
10. Karimov N. Hamid Olimjon she'riyatidagi folklor an'analari / О‘zbek sovet adabiyoti masalalari. Toshkent: Muxlis, 1959 yil.

IV. Internet saytlari

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://natlib.uz>
5. www.tilvaadabiyot.uz
6. <https://saviya.uz/hayot/suhbat/folklor-millatning-boqiy-tarixi>
7. <https://www.sunypress.edu/p-3130-folklore-and-literature.aspx>
8. <https://www.britannica.com/art/folk-literature/Cultural-exchange-in-written-and-oral-traditions>
9. <http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/489/491>

VIII. TAQRIZLAR



Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi prof. N.Rahmonov tomonidan tuzilgan “Folklor va yozma adabiyot aloqalari” nomli fan dasturi va o‘quv-uslubiy majmuaga

T A Q R I Z

“Folklor va yozma adabiyot aloqalari” moduli uchun tuzilgan o‘quv-uslubiy majmuada tinglovchilarda o‘zbek adabiyoti va folklori aloqalarining eng qadimgi davrlardan shu kungacha bo‘lgan qonuniyatlari, adabiyotning yuzaga kelishi, uning shaklan va mazmunan o‘zgarish sabablari nazariy jihatdan yoritib berilgan. Har ikki tizimning qaysi davrlardan boshlab o‘zaro yaxlitlashuvi masalalariga alohida e‘tibor berilgan.

Tinglovchilarga o‘zbek filologiyasi (o‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligini yaxlit holda)ni o‘qitishning innovatsion texnologiyalari ilg‘or yutuqlarini, “Folklor va yozma adabiyot aloqalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar yozma adabiyotning turli davrlardagi shakllanish holatlari; folklor syujetlarining va badiiy tasvir vositalarining yozma adabiyotga kirib kelishidagi o‘ziga xosliklar, har ikkala tizimda ularning yaxlit uqilishi, janrlarning umumiyliigi masalalari, qadimgi turkiy adabiyotning folklor bilan aloqalariga oid nazariy qarashlari, mifologiya har ikkala tizim uchun asos ekanligiga oid qarashlar izchil ravishda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, ilk klassik davr adabiyoti, o‘rta asrlar adabiyotida an’anaviy ravishda davom etib kelgan vositalarning adabiy-estetik vazifalari yoritib berilgan. Dastur va O‘UMning maqsadi tinglovchilarga folklor va yozma adabiyot aloqalariga oid bilim va ko‘nikmalar ega bo‘lishi vazifalarini anglatishdan iborat. Qadimgi adabiyotning milliy o‘ziga xosligi, uning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalalariga O‘UMda alohida o‘rin berilganini ta’kidlash kerak. Xalq kitoblari, ularning shakllanishi, yuzaga kelish omillari ham mazkur modulning muhim jihatlaridandir. Ayniqsa, Oltin O‘rda adabiy muhitida yuzaga kelgan nasriy asarlarda folklorning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, “Qisasi Rabg‘uziy”dagi afsonaviy motiv va syujetlar tahlili va talqinlari tinglovchilarda fikr uyg‘otishi tabiiy. Shuningdek, qadimgi hind, qadimgi Xitoy xalq og‘zaki ijodi va individual ijod haqidagi qarashlar ham mazkur dasturdan va majmuadan o‘rin olgan. Zotan, Folklor va yozma adabiyot aloqalariga kengroq qarash natijasida tinglovchilar bu modulning maqsadini teran anglab yetadilar. O‘quv-uslubiy majmua “Folklor va yozma adabiyot aloqalari” moduliga oid asosiy masalalarning mohiyatini yoritishga yordam beradi.

Xullas, N. Rahmonov tomonidan tuzilgan “Folklor va yozma adabiyot aloqalari” nomli fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua o‘zbek adabiyotshunosligi hamda o‘qitishning ilg‘or texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi, uni bemalol nashrga tavsiya etish mumkin.

A.Tilavov



**TDO‘TAU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi**

**TOSHDO‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARAZIDA
O‘QITILADIGAN “O‘ZBEK TILI FILOLOGIYASI: O‘ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI” YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

Mazkur yo‘nalish o‘z maqsad va vazifalriga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko‘rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo‘ladi. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bili olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “Jahon adabiy ta’limining yetakchi konsepsiyalari”, “Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar”, “Oliy ta’limda mumtoz she’r tuzilishini o‘qitish muammolari”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Folklor va yozma adabiy aloqalar”, “O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” kabi modullarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlash zarur.

Dasturda har bir fanni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun, tinglovchilar malakasini oshirish maqsadida rasmiy hujjatlar, jumladan, o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar, malaka talablari hamda kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Zero, o‘zbek adabiyotshunoslarining darajalarini dunyo ilm-fani olimlari, muallimlari darajasiga ko‘tarish uchun dunyo adabiyotshunosligidagi ilg‘or adabiy-nazariy metodlar tamoyillari, badiiy asarlarning shakliy jihatlariga doir muammolari, jadid adabiyotining dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganilishi, dunyo ilm-fan markazlarida o‘zbek adabiyoti muammolari tadqiqotlari, o‘zbek yozma dabiyoti bilan xalq og‘zaki ijodi bilan aloqalarini tinglovchilar e’tiboriga havola etish o‘zining yaxshi samaralarini berishi tabiiy.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan. Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilarning ilmiy-

pedagogik faoliyatini inobatga olinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish malakasiga, ayniqsa, talabalar bilan ustozlarning o'zaro muomala madaniyatiga e'tibor berish kabi masalalarning ushbu o'quv dastur tuzuvchi professor-o'qituvchilari diqqatini o'ziga jalb etgani katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori



S.Normamatov



T.C.
ISTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tganiga qaramay, ilmiy, pedagogik yo'nalishda katta yutuq va natijalarga erishmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining aynan shu nufuzli universitet qoshida ochilgani ayni muddao bo'lgan.

"O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv dasturining mazmun-mundariyasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi – pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompetatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rin olgani ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda. 1-modulning "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish" deb nomlangan 1.1-qismida kredit tizimi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, ayniqsa onlayn darslarni tashkil etish va o'tqazishda pedagog e'tibor qaratishi muhim bo'lgan jihatlar aks etgan.

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" bo'limida esa pedagogning ilmiy, pedagogik salohiyatini jahon standartlariga chiqarish yo'lidagi zarur tavsiya, ko'rsatmalar belgilab berilgan.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, bu, ta'bir joiz bo'lsa, 1-modulning mantiqiy davomi va yakunlovchi bosqichidir. Ushbu modulda tinglovchi-pedagog o'zlashtirishi ko'zda tutilgan multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini tayyorlash, ulardan ta'lim jarayonida samaraliy foydalanish, QR – kod va undan foydalanish, shuningdek, sohaga tegishli ingliz tilidagi maqolalarni o'qib, tushunish ko'nikmasi kabilarning qamrab olingani mutaxassis kadrlarning o'z yo'nalishlari bo'yicha yanada tajribali bo'lishlariga qaratilgan. "Mutaxassislik fanlari" deb nomlangan 3-modul 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ushbu modulda folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotning samarali o'qitilishiga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va pedagogik yo'llanmalar ifoda etilgan. "Adabiyotshunoslik metodlari va tamoyillari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" bo'limlaridagi talab va ko'nikmalarni o'zlashtirgan pedagog-tinglovchi ta'lim jarayonida jiddiy yutuq va natijalarga erishmog'i shubhasizdir.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid 8 internet saytlaridan foydalanilgani ham mazkur dasturning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori